



BOLANING ZEHNINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV YONDASHUV

o'quv uslubiy qo'llanma

```
extract_number_and_incr(destination, source) int
/*destination; unsigned char **source; { extract_number_and_incr(destination, *source); *source += 2; } #ifndef EXTRACT_MACRO
ROS #undef EXTRACT_NUMBER_AND_INCR #define EXTRACT_NUMBER_AND_INCR(dest, src) { extract_number_and_incr (&dest, &src) #endif /*
not EXTRACT_MACRO */ #endif /* DEBUG */ /* If DEBUG is defined, Regex prints
many voluminous messages about what it is doing (if the variable `debug' is nonzero). If
linked with the main program in `regex.c', you can enter patterns and strings interactively.
And if linked with the main program in `main.c' and the other text files, you can run the al-
ready-written tests. */ #ifdef DEBUG /* We use standard I/O for debugging. */ #include <stdio.h>
/* It is useful to test things that "must" be true when debugging. */ #include <assert.h> static int
debug = 0; #define DEBUG_STATEMENT(e) e #define DEBUG_PRINT1(x) if (debug) printf (x) #define
DEBUG_PRINT2(x1, x2) if (debug) printf (x1, x2) #define DEBUG_PRINT3(x1, x2, x3) if (debug) printf
(x1, x2, x3) #define DEBUG_PRINT4(x1, x2, x3, x4) if (debug) printf (x1, x2, x3, x4) #define DE-
BUG_PRINT_COMPILED_PATTERN(p, s, e) if (debug) print_partial_compiled_pattern (s, e) #define DE-
BUG_PRINT_DOUBLE_STRING(w, s1, sz1, s2, sz2) if (debug) print_double_string (w, s1, sz1, s2, sz2)
extern void printchar(); /* Print the fastmap in human-readable form. */ void print_fastmap (fastmap)
char *fastmap; { unsigned was_a_range = 0; unsigned i = 0; while (i < (1 << BYTEWIDTH)) { if (fastmap[i++]
{ was_a_range = 0; printchar (i - 1); while (i < (1 << BYTEWIDTH) & fastmap[i]) { was_a_range = 1; i++; } if
(was_a_range) { printf ("-"); printchar (i - 1); putchar ('\n'); } /* Print a compiled pattern string in hu-
man-readable form, starting at the START pointer into it and ending just before the pointer END. */ void
print_partial_compiled_pattern (start, end, unsigned char *start; unsigned char *end; { int mcnt, mcnt2; un-
signed char *p = start; unsigned char *pe = end; if (start == NULL) { printf ("null\n"); return; } /* Loop over
pattern commands. */ while (p < pe) { switch ((re_opcode_t) *p++) { case no_op: printf ("/no_op");
break; case exactn: mcnt = *p++; printf ("/exactn/%d", mcnt); do { putchar ('/'); printchar (*p++); }
while (--mcnt); break; case start_memory: mcnt = *p++; printf ("/start_memory/%d/%d", mcnt,
*p++); break; case stop_memory: mcnt = *p++; printf ("/stop_memory/%d/%d", mcnt, *p++);
break; case duplicate: printf ("/duplicate/%d", *p++); break; case anychar: printf ("/anychar");
break; case charset: case charset_not: { register int c; printf ("/charset%s", (re_opcode_t) *(p -
1) == charset_not ? "_not" : ""); assert (p + *p < pe); for (c = 0; c < *p; c++) { unsigned bit;
unsigned char map_byte = p[1 + c]; putchar ('/'); for (bit = 0; bit < BYTEWIDTH; bit++) if
(map_byte & (1 << bit)) printchar (c * BYTEWIDTH + bit); p += 1 + *p; break; } case beg-
line: printf ("/begline"); break; case newline: printf ("/newline"); break; case on_failure_
jump: extract_number_and_incr (&mcnt, &p); printf ("/on_failure_jump/0/%d", mcnt);
break; case on_failure_keep_string_jump: extract_number_and_incr (&mcnt, &p); printf
("/on_failure_keep_string_jump/0/%d", mcnt); break; case dummy_failure_jump: ex-
tract_number_and_incr (&mcnt, &p); printf ("/dummy_failure_jump/0/%d", mcnt); break;
case push_dummy_failure: printf ("/push_dummy_failure"); break; case may-
be_pop_jump: extract_number_and_incr (&mcnt, &p); p
("/maybe_pop_jump/0/%d", mcnt); break; case pop_f
jump: extract_number_and_incr (&mcnt, &p); print
failure_jump/0/%d", mcnt); break; case jump
extract_number_and_incr (&mcnt, &p); printf ("/
```






Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi

BOLANING ZEHNINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV YONDASHUV

o'quv uslubiy qo'llanma



TOSHKENT - 2026

“Bolaning zihnini rivojlantirishda kognitiv yondashuv” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy metodik markazi huzuridagi “Inklyuziv ta‘lim va psixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-metodik kengashning 2026-yil 10-iyundagi 2-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga ma‘qullangan.

Mualliflar: L.Tursunov, S.Mo‘minov

Mas‘ul muharrir:

O‘.Odiljonov - O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo‘lim boshlig‘i.

Dizayner va sahifalovchi:

D.Nurmatov - O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

Taqrizchilar:

S.Jalilova - Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti, P.f.n.;

Ch.Orziqulova - Renessans universiteti psixologi;

Sh.Jumanova - Toshkent shahri Sergeli tumani 68-sonli umumta‘lim maktabi psixologi

“Bolaning zihnini rivojlantirishda kognitiv yondashuv” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma: o‘qituvchilar va tarbiyachilar, psixologlar, maxsus pedagoglar (ya‘ni alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar), shuningdek maktabgacha, maktab va kasbiy ta‘lim tashkilotlaridagi psixologlar hamda ota-onalar.

Bu qo‘llanmaning asosiy maqsadi - bolalarda o‘qishga qiziqish va ishtiyoqni oshirish. Unda bolaning diqqatini jamlash, eslab qolish, to‘g‘ri fikrlash va atrofni to‘g‘ri anglash qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari sodda va tushunarli qilib berilgan. Shuningdek, qo‘llanma “kognitiv yondashuv” deb ataladigan - ya‘ni har bir bolaning aqliy qobiliyati va bilim olish usuliga mos keladigan ta‘lim usuli - asosida darslarni tashkil qilishga amaliy yordam beradi.

ISBN

© “O‘zbekiston Respublikasi Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy metodik markazi” Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy. 2026-yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Zehn haqida umumiy mulohazalar.....	6
Bola zehning kognitiv rivojlanishiga xorij psixologlarining mulohazalari.....	8
Shaxsga kognitiv yondashuvning rus psixologlari tomonidan talqin etilishi.....	20
Shaxs nazariyasiga mahalliy psixologlar tomonidan kognitiv yondashuv.....	22
Sharq mutafakkirlari ta'limotlarida shaxsni bilish masalalari	25
Sharq mutafakkirlari qarashlaridan kognitiv psixologiyaga o'tish asoslari.....	45
Tanqidiy fikrlash - muvaffaqiyat kaliti.....	48
Xulosa	50
Foydalanilgan adabiyotlar	52



KIRISH

Insoniyat tarixida yozma nutq paydo bo'lgunga qadar ham turli kasblar mavjud bo'lgan. Qadimgi davrlarda yoq kattalar yoshlarga ovchilik, bog'bonlik, chorvachilik, quruvchilik, tikuvchilik kabi hayot uchun zarur bo'lgan faoliyat turlarini o'rgatib kelgan. Bu bilim va ko'nikmalar avloddan-avlodga amaliy harakatlar orqali o'tib kelgan.

Hozirgi kunga kelib, bolaning ruhiy va aqliy rivojlanishi (ontogenez - shaxsning tug'ilishdan to voyaga yetguncha bo'lgan individual rivojlanishi) va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish tobora rivojlanmoqda.

Masalan, "New York Post" nashrining ma'lumotiga ko'ra, XX-XXI asrlarda texnologik va ijtimoiy omillarning bola ruhiy rivojlanishiga ta'siri hisobga olinib, quyidagi avlodlar ajratilgan:

1981-1996-yillarda tug'ilganlar - "Y" avlod (Millenniallar);

1997-2010-yillarda tug'ilganlar - "Z" avlod;

2010-2024-yillarda tug'ilganlar - "Alfa" avlod;

2025-2039-yillarda tug'iladiganlar - "Beta" avlod.

Ta'kidlanishicha, har bir yangi avlod o'zidan oldingi avloddan sezilarli darajada farq qiladi. Xususan, "Beta" avlod global iqlim o'zgarishi, migratsiya (aholining bir joydan boshqa joyga ko'chishi), shaharlashuv (urbanizatsiya) va texnologik taraqqiyot kuchli bo'lgan muhitda voyaga yetadi.

Demograf (aholi tarkibini o'rganuvchi olim) Mark Makkindlning fikricha, 2035-yilga borib, "Beta" avlod dunyo aholisining taxminan 16 foizini tashkil qiladi va ular sun'iy intellekt keng qo'llaniladigan muhitda yashaydi.



Unga ko'ra, bu avlod ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va kundalik hayotning boshqa sohalarida avtomatlashtirish (mexnatning mashinalar va dasturlar yordamida bajarilishi) va sun'iy intellekt bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi.

Ma'lumki, avlodlarni ajratish va ularni tasniflash ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik omillar asosida shakllanadi. Bu jarayonda demograflar, sotsiologlar (jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni o'rganuvchi olimlar) va boshqa mutaxassislar faol ishtirok etadi.

Inson qaysi avlodga mansub bo'lishidan qat'i nazar, u muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Bu bosqichlarda u kattalarning bilim va tajribalarini o'zlashtiradi. Bu jarayon o'z-o'zidan yuz bermaydi, balki maqsadli ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Bolalarning bilim va tajribalarni o'zlashtirish darajasi bir-biridan farq qiladi. Hatto bir xil sharoitda, bir o'qituvchi tomonidan ta'lim berilgan taqdirda ham natijalar turlicha bo'lishi mumkin. Buning asosiy sababi - har bir bolaning bilish va tushunish rivojlanishi (kognitiv rivojlanish darajasi), dunyoni idrok etishi (atrofdagi narsa va hodisalarni anglashi) va o'zini anglash jarayoni o'ziga xosdir.

Shuning uchun kattalar har bir bolaga alohida yondashishi, uning qobiliyati va aql-zakovati (zehni)ni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya berishi zarur. Bolaning bilimlarni o'zlashtirishi va zehni (aql-zakovati)ning namoyon bo'lishi bevosita uning kognitiv rivojlanish darajasiga bog'liq. Aynan shu masalalar ushbu qo'llanmaning asosiy mazmunini tashkil etadi va unda ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar bilan o'rtoqlashish maqsad qilingan.






Buyuk mutafakkirlarimizning bolaligi haqida gap ketganda, ularning juda aqlli va zakovatli (zehnli) bo'lganliklari alohida ta'kidlanadi. Ularning bolalik paytidayoq turli bilimlarni chuqur anglab yetganliklari, shu bilan ko'pchilikning e'tiborini tortganligi qayd etiladi. XXI asrning birinchi choragi tugallanish arafasida bo'lsa, hozirgi bolalarga nisbatan "aqlli" yoki "aqli past" degan baholarning kam qo'llanilayotgani kuzatiladi. Buning sababini quyidagi misol orqali tushuntirish mumkin. Olimlar inson qalbiga chuqur ta'sir qiladigan kuyni ijro etgan bir sozanda haqida iliq fikrlar bildirishadi. Suhbat davomida kimdir uning bolaligi haqida shunday eslaydi: u maktabda musiqa fanidan tashqari boshqa fanlarni o'zlashtirishda qiynalgan. Ammo musiqa o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilaridan unga yaxshi baho berib turishlarini so'rab, "Hali ko'rasizlar, bu bola musiqa san'atimizni dunyoga tanitadi, chunki uning musiqaga bo'lgan aqli va iqtidori cheksiz", deb aytgan. Bu misoldan shunday xulosa chiqarish mumkin: bola har bir sohada bir xil darajada aqlli va zakovatli bo'lavermaydi.

"Zehn" so'zi o'zbek tilida aql, idrok, fikrlash, xotira va diqqat kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'z insonning aqliy qobiliyatlari, fikrlash jarayoni va bilimlarni o'zlashtirish darajasini ifodalaydi. Zehn - bu fikrlashning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u bilim va ko'nikmalarni tez anglash, ularni chuqur tushunish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Shuni alohida ta'kidlash kerak: zehn, qobiliyat va iqtidor bir-biridan farq qiladi. Bolani muntazam va tizimli ravishda kuzatib borish orqali uning qaysi faoliyatga nisbatan zehnli ekanligini aniqlash mumkin. Ruhiy nuqtai nazardan, zehn - bu insonning ma'lum bir faoliyat turiga qaratilganligini ko'rsatadigan ruhiy holatdir.

Faoliyat nuqtai nazaridan esa zehn - bu ma'lum bir faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoj, qiziqish va intilishdir. Zehn insonning nafaqat yakuniy natijaga, balki faoliyat jarayonining o'ziga ham qiziqishini bildiradi. Zehnlik esa insonning uzoq vaqt davomida ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanish istagida namoyon bo'ladi. Bolalarda bu holat ma'lum bir sohaga qiziqishning ortishi va qo'shimcha mashg'ulotlarga borish orqali ko'rinadi. Shuning uchun zehn yoki qiziqish - bu bolaning zavq bilan bajaradigan faoliyati deb ham tushunish mumkin. Masalan, bola musiqaga, ilm-fanga, chet tillarini o'rganishga yoki boshqa sohalarga katta qiziqish bildirishi mumkin. Muhim jihat: agar bola biror faoliyatga nisbatan sustlik ko'rsatsa, buni uning umuman aqli pastligi deb emas,






balki aynan o'sha faoliyatga qiziqmayotganligi bilan bog'lab baholash kerak. Bolaning sevimli mashg'ulotidan farqli ravishda, zehn va tirishqoqlik har doim ham aniq natija bilan namoyon bo'lmazligi mumkin. Biroq zehnlilik sevimli mashg'ulotlarga nisbatan muhimroq va jiddiyroq ruhiy holatdir. Uning mazmunini ko'pchilik har doim ham to'liq tushunavermaydi - bu tabiiy. Zehnli muayyan faoliyat, holat yoki narsaga nisbatan shakllanadigan munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bolaning rivojlanishida zehnni ma'lum bir faoliyatga yo'nalganlik deb ta'riflash mumkin.

Zehnlilikning asosi - bu insonning ma'lum bir faoliyatga nisbatan chuqur va mustahkam ehtiyoji, ya'ni o'sha faoliyat turiga doimiy qiziqishidir. Shu bilan birga, bu ehtiyoj ushbu faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalarni rivojlantirish istagi bilan ham uzviy bog'liqdir. Zehnlilik insonning ma'lum bir faoliyatga tanlab yo'naltirilganligini ifodalaydi va uni aynan shu faoliyat bilan muntazam shug'ullanishga undaydi. Shu jihatdan u qobiliyatlarning rivojlanishi uchun muhim shartdir. Garchi ba'zi hollarda zehn va qobiliyat bir-biriga mos kelmasligi ham mumkin. Bola shaxsini ruhiy jihatdan tavsiflovchi muhim xususiyatlardan biri - bu uning zehnidir.

“Qiziqish” va “zehnlilik” tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida muhim farqlar bor. Qiziqish - ma'lum bir mavzuga diqqatni qaratish, uni o'rganishga intilish, anglash va tushunishga bo'lgan ichki ehtiyojdir. Zehnlilik esa - ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan barqaror moyillik va amaliy yo'nalganlikdir. Ko'pincha qiziqish va zehnlilik bir-biri bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Masalan, shaxmatga qiziqish odatda shaxmat o'ynashga moyillik (zehnlilik) bilan birga keladi. Biroq qiziqish har doim ham amaliy moyillik bilan uyg'unlashavermaydi. Masalan, teatrga qiziqqan barcha bolalarda aktyorlikka moyillik bo'lmazligi mumkin. Yoki tarixga qiziqish tarixchi bo'lish istagini anglatmaydi.

Zehnlilik - bu insonning ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan ehtiyoji va unga nisbatan barqaror yo'nalganligidir. Uning asosiy belgisi - bolaning ma'lum bir faoliyat bilan uzoq vaqt va tizimli ravishda shug'ullanish istagidir. Bu istak o'quv fanlariga bo'lgan munosabatda, to'garak va seksiyalarda qatnashishda, bo'sh vaqtni aynan shu faoliyatga sarflashda yaqqol ko'rinadi. Umuman olganda, zehnlilik - bu insonning ma'lum bir faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan o'ziga xos ruhiy xususiyatidir. U yangi bilimlarni egallashga, faoliyatda yuqori natijalarga erishishga va muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiluvchi barqaror maqsad va manfaatlar majmuasidir.


BOLA ZEHNINING KOGNITIV RIVOJLANISHIGA XORIJ PSIXOLOGLARINING MULOHAZALARI




Bolaning shaxs bo'lib shakllanish qonuniyatlarini ilmiy asosda tahlil qiladigan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon "sotsializatsiya" (jamiyatga moslashish) va "kognitiv rivojlanish" (aql va bilim olish qobiliyatining o'sishi) qonuniyatlaridan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Bu ikki tushunchani birlashtiruvchi asosiy omil - ularning bola shaxsiga nisbatan qo'llanishi va shaxsning individual xususiyatlarini umumlashtiruvchi mantiqiy mazmundir. Bolaning shaxsga aylanish jarayoniga e'tibor qaratilsa, uning o'ziga xos qonuniyati shundan iboratki, bola jamiyatning katta a'zolari bilan muloqot qilish jarayonida ularning bilimlarini avval ong ostida (sezmay turib) o'zlashtiradi, keyinchalik esa bu bilimlarni ongli ravishda amaliy faoliyatda qo'llay boshlaydi. Aynan bilimlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash jarayonida aql va zehning kognitiv rivojlanishi muvozanatni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsial-kognitiv yondashuv psixologiyada muhim o'rin tutadi. Ba'zi nazariyalar aqliy rivojlanishning ichki (endogen) omillariga asoslansa, boshqalari tashqi (ekzogen) omillariga tayanadi. Psixik rivojlanish nazariyalarini tasniflashda odatda ikkita asosiy parametrdan foydalaniladi: birinchisi - rivojlanishning manbai va uni harakatga keltiruvchi kuchlar, ikkinchisi esa rivojlanish sohasining o'zi. Bola rivojlanishining tabiati va uni belgilovchi omillar masalasi psixologiyada uzoq vaqtdan beri ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Aqliy rivojlanishning zehn bilan uzviy bog'liqligi esa biogenetik (irsiyatga asoslangan) va sotsiogenetik (jamiyat ta'siriga asoslangan) yondashuvlar doirasida turlicha talqin etiladi. Biogenetik yondashuv tarafdorlari insonning asosiy aqliy xususiyatlari uning tabiiy (biologik) mohiyatiga xos bo'lib, uning hayot yo'lini belgilaydi, degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, intellekt, shaxsning axloqiy sifatleri va boshqa psixik jihatlar genetik jihatdan dasturlashtirilgan bo'ladi.

Biogenetik qarashlarning shakllanishida muhim bosqichlardan biri Charlz Darvin tomonidan ilgari surilgan rivojlanish (genezis)ning muayyan qonuniyatlarga bo'ysunishi haqidagi nazariyadir. Ko'pincha har qanday yirik psixologik konsepsiya bolaning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga qaratilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, nemis tabiatshunosi Ernst Gekkel va nemis fiziologi logannes Myuller biogenetik qonunni ilgari surdilar. Unga ko'ra, hayvonlar va inson embrional (homila) rivojlanish jarayonida o'z turining tarixiy rivojlanish





(filogenez) davomida bosib o'tgan bosqichlarini qisqacha takrorlaydi. Ularning fikricha, ushbu jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishida (ontogenez) ham ma'lum darajada o'z aksini topadi.

Amerikalik psixolog Stenli Xoll bola o'z rivojlanishida insoniyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oyani ilgari surdi. Ushbu qarash bolalarni kuzatish natijalariga asoslanib, rivojlanishning turli bosqichlarini ajratishga olib keldi. Masalan, "g'or bosqichi" (bola qum qaziganda), "ov qilish" va "almashish" bosqichlari shular jumlasidandir. Xoll, shuningdek, bolalar chizgan rasmlar insoniyat tasviriy san'ati tarixida bosib o'tilgan bosqichlarni ma'lum darajada aks ettiradi, degan fikrni ilgari surdi. Insoniyat taraqqiyotining bunday "takrorlanishi" g'oyasiga asoslangan aqliy rivojlanish nazariyalari rekapitulyatsiya (qisqacha takrorlash) nazariyalari deb ataladi.

Taniqli rus fiziologi Ivan Pavlov shartli reflekslar (ma'lum bir shartga qarab paydo bo'ladigan reaksiyalar) asosida xulq-atvorning orttirilgan shakllari mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa inson taraqqiyotida instinkt (tabiatan berilgan xatti-harakat) va tarbiya omillarining o'zaro ta'siri muhim ekanligini ko'rsatdi. Nemis psixologi Volfgang Kyoler antropoid (odamsimon) maymunlar ustida olib borgan tajribalari natijasida ularda elementar aql mavjudligini aniqladi. Ushbu tadqiqotlar asosida u psixikaning rivojlanishi uch bosqichdan iborat ekanligini ta'kidladi: instinkt (tabiiy tug'ma xatti-harakat), o'rganish (o'qitish) va aql.

Avstriyalik psixolog Karl Byuler Kyoler nazariyasiga tayangan holda va psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd qarashlaridan ta'sirlanib, rivojlanishning umumiy tamoyilini ishlab chiqdi. Uning fikricha, barcha tirik mavjudotlar rivojlanishi instinkt, o'rganish va aql bosqichlarining ketma-ketligi orqali amalga oshadi. Byuler ushbu bosqichlarni nafaqat miyaning yetilishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarning murakkablashuvi, balki affektiv (hissiy) holatlarning rivojlanishi - zavqlanish (qoniqish) tajribasi bilan ham izohladi. Uning ta'kidlashicha, instinkt bosqichida "funktional zavq" yuzaga keladi, ya'ni zavq faoliyatning o'zini bajarish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Intellektual bosqichda esa shaxs faoliyat natijasidan olinadigan qoniqishni oldindan kutish holatiga ega bo'ladi.

Kyoler zoopsixologik (hayvonlar psixologiyasiga oid) qiyosiy tadqiqotlar orqali inson va maymunlarning sodda qurollardan foydalanishdagi o'xshashliklarini aniqlagan. Bu esa aqliy rivojlanishning evolyutsion ildizlarini ko'rsatadi.

Psixoanalitik yondashuv (Freyd, Anna Freyd, Melani Klyayn) dastlab psixik kasalliklarni davolash usuli sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik shaxs rivojlanishini

tushuntiruvchi muhim psixologik yo'nalishga aylandi. Freyd erkin assotsiatsiya (bexosdan fikr aytilish usuli) metodidan foydalanib, kattalardagi ko'plab psixik muammolar bolalik davridagi tajribalarga borib taqalishini aniqladi. Psixoanaliz nazariyasining asosini ongsizlik (inson o'zi bilmagan jarayonlar) va jinsiy ehtiyojlarga asoslangan motivatsion tizim tashkil etadi. Freyd inson o'z xatti-harakatlarining asl sabablarini to'liq anglay olmasligini aynan ongsizlik bilan izohlaydi.

Freydga ko'ra, bolalikdagi tajribalar ko'pincha jinsiy xarakterga ega bo'lib, ular ota-onaga bo'lgan mehr va raqobat hissi, aka-uka yoki opa-singillarga nisbatan hasad kabi munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Shaxs tuzilmasida Freyd uchta asosiy komponentni ajratadi: "U" (Id) - instinktlar manbai bo'lib, ongsiz va zavq tamoyiliga bo'ysunadi; "Men" (Ego) - voqelik tamoyiliga amal qiladi va tashqi muhit talablarini hisobga oladi; "Supermen" (Superego) - axloqiy me'yorlar, ichki nazorat va tanqidni ifodalaydi. Ushbu komponentlar o'rtasida ko'pincha ziddiyat yuzaga keladi. Bu ziddiyatlar psixologik "himoya mexanizmlari" orqali yumshatiladi. Bunday mexanizmlarga repressiya (siqib chiqarish), proyeksiya (o'zidagi salbiy xislatlarni boshqalarga ko'rish), regressiya (oldingi rivojlanish bosqichiga qaytish) va sublimatsiya (instinktiv energiyani ijtimoiy maqbul faoliyatga yo'naltirish) kiradi. Freydning fikricha, bola shaxsining rivojlanishi instinktiv ehtiyojlar va ijtimoiy cheklovlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida amalga oshadi. U bolalik davridagi rivojlanishni psixoseksual bosqichlar orqali izohlaydi.

Og'zaki bosqich (tug'ilishdan 1 yoshgacha). Freyd nazariyasiga ko'ra, bu davrda asosiy zavq manbai og'iz sohasi bilan bog'liq bo'lib, ovqatlanish jarayoni yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqich ikki davrni o'z ichiga oladi: erta davr (birinchi 6 oy) - so'rish refleksi ustun; kech davr (ikkinchi 6 oy) - tishlash harakati paydo bo'ladi. Norozilik manbai onaning bolaning ehtiyojlarini darhol qondira olmasligi bilan bog'liq. Shu davrda "Men" (Ego) asta-sekin "U" (Id)dan ajralib shakllana boshlaydi.

Anal bosqich (1-3 yosh). Bu bosqich ham ikki davrdan iborat bo'lib, unda asosiy e'tibor anal sohaga qaratiladi. Bola tozalik ko'nikmalarini egallash jarayonida o'z xulq-atvorini boshqarishni o'rganadi. Shu bilan birga, bolaning "Men"i zavqlanish istagi bilan real talablar o'rtasida muvozanat topishga intiladi. Bu davrda "Men" nisbatan shakllanib, "U" impulslarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'la boshlaydi. Ijtimoiy talablar, ota-onaning jazosi yoki mehridan mahrum bo'lish qo'rquvi natijasida bola taqiqlarni ichki (ongsiz) darajada qabul qiladi. Shu jarayonda "Supermen" (Superego) shakllanishi boshlanadi.

Fallik bosqich (3-5 yosh). Bu davrda bolalarning jinsiy rivojlanishi nisbatan faol bosqichga o'tadi va genital organlar asosiy erogen zona (zavq manbai) sifatida anglana boshlaydi. Bola qarama-qarshi jinsdagi ota-onasiga nisbatan alohida qiziqish bildiradi. Freyd bu holatni o'g'il bolalarda "Edip kompleksi", qiz bolalarda esa "Elektra kompleksi" deb atagan.

Ushbu tushuncha yunon afsonasidagi Edip obrazi bilan bog'liq bo'lib, unda bola onaga nisbatan mehr, otaga nisbatan esa raqobat hissini boshdan kechiradi. Freydning ta'kidlashicha, ushbu bosqich oxiriga kelib, bola ichki qo'rquvlar (masalan, jazolanish yoki yo'qotish qo'rquvi) ta'sirida mazkur kompleksni yengib o'tadi: u onaga nisbatan kuchli bog'lanishdan voz kechib, ota bilan identifikatsiya (o'zini tenglashtirish) jarayonini boshlaydi. Natijada "Supermen" yanada mustahkam shakllanadi.

Yashirin (latent) bosqich (5-12 yosh). Bu davrda jinsiy qiziqishning pasayishi kuzatiladi, "Men" (Ego) "U" (Id) ehtiyojlarini nisbatan to'liq nazorat qila boshlaydi. Libido (jinsiy energiya) tengdoshlar va kattalar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish hamda umumiy rivojlanishga yo'naltiriladi.

Genital bosqich (12-18 yosh). Freydning fikricha, o'smirlik davrida shaxsning asosiy maqsadi normal jinsiy munosabatlarga erishishdir. Bu bosqichda barcha erogen zonalar integratsiyalashadi (bir-biriga bog'lanadi). Agar bu jarayon murakkab kechsa, oldingi bosqichlarga fiksatsiya (tutashib qolish) yoki regressiya (oldingi bosqichga qaytish) holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu davrda "Men" yana faollashgan "U"ning kuchli impulslari bilan kurashishga majbur bo'ladi. Freyd nazariyasiga ko'ra, bolaning normal rivojlanishi ko'pincha sublimatsiya mexanizmi orqali amalga oshadi, ya'ni instinktiv energiya ijtimoiy jihatdan maqbul faoliyatga yo'naltiriladi. Boshqa himoya mexanizmlarining ustunligi esa ayrim patologik (kasallikka olib boruvchi) holatlarga olib kelishi mumkin. Freydning rivojlanish konsepsiyasi dinamik xarakterga ega bo'lib, unda inson taraqqiyotida tashqi obyektlardan ko'ra, boshqa insonlar bilan munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Psixoanaliz yo'nalishi doirasida Karl Yung, Alfred Adler, Karin Xorni kabi olimlar ham o'z ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Psixolog S.D.Smirnov xorijiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari va shartlarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelgan: Freydg ko'ra, individual va shaxsiy rivojlanishning asosini tug'ma instinktlar tashkil etadi, bunda biologik jalb etilish (libido) psixik energiyaning asosiy manbai sifatida qaraladi; Yungga ko'ra, rivojlanish "individuatsiya" jarayoni orqali kechadi, ya'ni insonning o'ziga xosligini anglash va jamiyatdan ma'lum darajada ajralib turishga intilishi bilan bog'liq.

Individuatsiyaning (o'zligini topish jarayonining) yakuniy maqsadi "o'zlik"ni anglashning eng yuqori darajasiga erishish, psixik tuzilmalarning yaxlitligi va uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Alfred Adlarning fikricha, bola tug'ilishidanoq "jamoat tuyg'usi" yoki "ijtimoiy tuyg'u"ga ega bo'ladi. Bu esa uni jamiyatga kirishga va hayotining dastlabki yillarida shakllanadigan o'zining yetishmovchilik (kamchilik) hissini yengishga undaydi. Shu jarayonda turli kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) mexanizmlari orqali shaxs ustunlikka erishishga intiladi. Karin Xorning fikricha, shaxsiy rivojlanishning asosiy energiya manbai tashvish, noqulaylik va "asosiy tashvish" (basic anxiety - dunyodan keladigan xavf-xatarlarga nisbatan doimiy his qilinadigan ichki bezovtalik) hisoblanadi. Shuningdek, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj ham shaxs rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Zigmund Freydning qizi Anna Freyd otasining g'oyalarini davom ettirib, klassik psixoanalitik nazariya va amaliyotni rivojlantirdi. U bola shaxsining instinktiv qismida jinsiy va tajovuzkor tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatdi. Shuningdek, u har bir rivojlanish bosqichi ichki instinktiv ehtiyojlar va ijtimoiy muhit talablari o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish natijasi ekanligini ta'kidladi. Anna Freydga ko'ra, bola rivojlanishi zavqlanish prinsipidan voqelik prinsipiga o'tish qonuniyatiga bo'ysunadigan bosqichma-bosqich ijtimoiylashuv (jamiyatga moslashish) jarayonidir. Bir tamoyildan ikkinchisiga o'tish faqat "Men" (Ego) funksiyalari ma'lum darajada rivojlangandagina mumkin bo'ladi. Masalan, xotiraning rivojlanishi bolaga tajriba va oldindan taxmin qilish asosida harakat qilish imkonini beradi. Nutqni egallash uni jamiyat a'zosiga aylantiradi. Mantiqiy fikrlash esa sabab-oqibat aloqalarini tushunishga yordam beradi. Natijada dunyoga nisbatan ongli va adekvat (to'g'ri, mos) moslashuv shakllanadi. Voqelik va fikrlash prinsipining shakllanishi ijtimoiylashuvning yangi mexanizmlarini yuzaga keltiradi: taqlid (imitatsiya), identifikatsiya (o'zini boshqalar bilan tenglashtirish), introyeksiya (boshqalarning his-tuyg'ularini ichki qabul qilish). Ushbu mexanizmlar "Supermen" (Superego) shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon bolaning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda onaning individual munosabatlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Anna Freydning fikricha, bola shaxsiy rivojlanishidagi nomutanosiblik quyidagi omillar bilan izohlanadi: rivojlanish chiziqlarining notekisligi, regressiyalarning (oldingi bosqichga qaytishning) davomiyligi, ichki instansiyalar o'rtasidagi aloqalarning turlicha shakllanishi va boshqalar. Rivojlanish va regressiya o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir normal rivojlanish jarayonida ko'plab individual farqlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, qat'iy "normal rivojlanish" mezonlarini belgilash murakkabdir.

Rivojlanishning sotsiogenetik nazariyalari (ijtimoiy muhitga asoslangan qarashlar). Sotsiogenetik konsepsiya tarafdorlari bola psixikasining rivojlanishiga ijtimoiy muhit hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, inson xulq-atvorida tug'ma omillar deyarli mavjud emas, barcha xatti-harakatlar tashqi ta'sir natijasidir. Shu bois, tashqi muhitni boshqarish orqali istalgan xulq-atvorni shakllantirish mumkin, degan qarash ilgari suriladi. XVII asrda ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704) ham shunga yaqin fikrni ilgari surgan. Unga ko'ra, bola dunyoga "toza taxta" (tabula rasa - yozilmagan bo'sh taxtacha) sifatida keladi va unga istalgan tajriba va bilimlarni "yozish" mumkin. Shu sababli, bola rivojlanishida irsiyat emas, balki tarbiya va muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisoblagan. Amerikalik psixolog Jon Uotson (1878-1958) "Inson nimani o'ylashini o'rganishni to'xtatding, keling, odam nima qilayotganini o'rganamiz!" degan shiorni ilgari surgan. U inson xulq-atvorida tug'ma omillar mavjud emas, uning har bir harakati tashqi stimullarning mahsuli, deb hisoblagan. Shu bois, tashqi stimullarni boshqarish orqali har qanday turdagi xulq-atvorni shakllantirish mumkin, degan g'oya ilgari surilgan.

Ivan Pavlovning ta'limotida esa stimulyator (qo'zg'atuvchi) va reaksiya (javob), shartli va shartsiz reflekslar o'rtasidagi bog'liqlik g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu jarayonda bog'lanishning vaqt omili ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uotson va Edvin Gatri assotsiatsionistik ta'lim konsepsiyasiga asos solib, bixeviorizm (xulq-atvor psixologiyasi)ning dastlabki nazariy asoslarini shakllantirganlar. Bixeviorizm XX asr Amerika psixologiyasidagi yo'nalish bo'lib, u ongni ilmiy tadqiqot predmeti sifatida inkor etadi va psixikani xulq-atvor shakllari yig'indisi sifatida talqin qiladi. Xulq-atvor esa organizmning atrof-muhit stimullariga javob reaksiyalari majmui sifatida tushuniladi.



Uotsonning fikricha, “ong, sezgi, idrok, tasavvur va iroda” kabi tushunchalarni inson xulq-atvorini tahlil qilishdan chiqarib tashlash mumkin. U inson xulq-atvorini hayvonlar xulq-atvori bilan solishtirib o'rganishni taklif qiladi. Uotsonga ko'ra, inson ham boshqa hayvonlar kabi o'rganish orqali shakllanadigan biologik mavjudotdir. Klassik bixeviorizm da asosiy e'tibor atrof-muhit ta'siri va mustahkamlash (reinforcement - ijobiy natijani kuchaytirish) jarayonlariga qaratiladi.

Neobixeviorizm vakillari - amerikalik psixologlar Edvard Torndayk (1874-1949) va Burres Skinner (1904-1990) - o'rganishning yangi tushunchasini ishlab chiqdilar va uni “operant o'rganish” (faol harakat orqali o'rganish) deb atadi. Bu yondashuvga ko'ra, yangi xulq-atvor shakllanishida mustahkamlash muhim rol o'ynaydi, ya'ni shartsiz va shartli stimullar o'rtasidagi bog'lanishlar orqali yangi stimul-reaksiya aloqalari shakllanadi. Asosiy urg'u aynan mustahkamlarning ahamiyatiga qaratiladi. Sotsiologik yondashuvga ko'ra, bolaning rivojlanishi uning ijtimoiy kelib chiqishi hamda muayyan ijtimoiy muhitga mansubligi bilan belgilanadi. Bu yondashuv turli ijtimoiy qatlamlardagi bolalar turlicha ta'lim-tarbiya

jarayoniga jalb etilishi kerak, degan g'oyani ham o'z ichiga oladi. U ijtimoiy ta'lim nazariyalari doirasida qaraladi. Ushbu yondashuvda bola rivojlanishi asosan tashqi ijtimoiy sharoitlarning bevosita ta'siri natijasi sifatida talqin etiladi. Taqlid va identifikatsiya orqali o'rganish eng muhim o'rganish shakllaridan biri hisoblanadi. Identifikatsiya - bu shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini boshqa shaxs modeliga asoslab shakllantirish jarayonidir. Erta bolalik davrida bola o'z xulq-atvorining boshqalar tomonidan baholanishi uning ijtimoiy moslashuvi va farovonligiga ta'sir qilishini anglay boshlaydi.

Mavjud nazariyalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sotsiogenetik yondashuvlarda (ijtimoiy muhitga asoslangan qarashlarda) atrof-muhit psixik rivojlanishning asosiy omili sifatida qaraladi, biroq bolaning ichki faolligi yetarli darajada hisobga olinmaydi. Ijtimoiy ta'lim konsepsiyasi esa bolaning zamonaviy jamiyatga qanday moslashishi, uning me'yor va qadriyatlarni qanday o'zlashtirishini tushuntirishga qaratilgan. Ushbu yo'nalish vakillari klassik shartli reflekslar asosidagi o'rganish bilan bir qatorda, taqlid orqali o'rganish ham muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bu jarayon Amerika psixologiyasida o'rganishning uchinchi shakli sifatida e'tirof etila boshlagan. Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy ta'lim nazariyalarida rivojlanish muammosi ko'pincha Freydistik qarashlardan kelib chiqadigan bola va jamiyat o'rtasidagi dastlabki qarama-qarshilik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Ijtimoiylashuv (jamiyatga moslashish) - bu shaxsning muloqot va faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va uni faol qayta ishlab chiqish jarayoni hamda natijasidir. U ba'zan jamiyatdagi turli hayotiy sharoitlarning shaxsga o'z-o'zidan ta'siri, ba'zan esa tarbiya jarayoni orqali, ya'ni shaxsning maqsadli shakllanishi sifatida amalga oshadi.

Ta'lim ijtimoiylashuvning yetakchi va belgilovchi omili hisoblanadi. "Ijtimoiylashuv" tushunchasi ijtimoiy psixologiyaga 1940-1950-yillarda kiritilgan. Turli ilmiy maktablarda u turlicha talqin qilinadi: neobixeviorizm - ijtimoiy ta'lim sifatida, ramziy interaksionizm (belgilar va muloqot orqali o'zaro ta'sir nazariyasi) - ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasi sifatida, gumanistik psixologiyada esa - "Men" konsepsiyasining o'zini o'zi ro'yobga chiqarishi (o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishi) sifatida izohlanadi. Ijtimoiylashuv hodisasi ko'p qirrali bo'lib, turli ilmiy yo'nalishlar ushbu jarayonning turli jihatlarini o'rganishga e'tibor qaratadi. Ijtimoiy ta'lim muammolari bilan amerikalik psixologlar Albert Bandura, Robert Sirs, Burres Skinner va boshqa olimlar shug'ullangan.

Albert Bandura (1925 yilda tug'ilgan) yangi xulq-atvorni shakllantirishda mukofot va jazolashning o'zi yetarli emas, deb hisoblagan. Shu bois u hayvonlar ustida olingan natijalarni bevosita inson xulq-atvoriga tatbiq etishga qarshi chiqqan. Unga ko'ra, bolalar yangi xulq-atvorni kuzatish va taqlid qilish orqali, ya'ni ular uchun muhim bo'lgan shaxslarning xatti-harakatlarini o'zlashtirish hamda identifikatsiya (o'zini boshqalar bilan tenglashtirish) orqali egallaydi. Bandura bolalar

tajovuzkorligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan. Bir guruh bolalarga filmlar namoyish etilgan bo'lib, unda kattalarning turli xulq-atvor shakllari (tajovuzkor va tajovuzkor bo'lmagan) hamda ularning oqibatlari (mukofot yoki jazo) ko'rsatilgan. Masalan, filmda kattalarning o'yinchoqlar bilan tajovuzkor muomalasi aks ettirilgan. Filmni tomosha qilgandan so'ng, bolalar ushbu o'yinchoqlar bilan mustaqil o'ynash jarayonida filmda ko'rgan xatti-harakatlarni takrorlaganlar. Natijada, filmni ko'rgan bolalarda tajovuzkor xulq-atvor darajasi uni ko'rmagan bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lgan. Agar filmda tajovuzkor xulq-atvor mukofotlangan bo'lsa, bolalarda ham tajovuzkorlik kuchaygan, aksincha, jazolangan holatlarda esa tajovuzkorlik kamaygan.

Bandura "rag'batlantirish - reaksiya" (stimul - javob) diadasini ajratib ko'rsatib, modelga taqlid qilish orqali yangi xulq-atvor shakllanishini tushuntirish uchun ushbu sxemaga to'rtta oraliq jarayonni kiritadi: model xatti-harakatiga e'tibor qaratish; kuzatilgan xatti-harakatni xotirada saqlash; uni takrorlash imkonini beruvchi harakat (motor) ko'nikmalari; xatti-harakatni takrorlashga undovchi motivatsiya. Bandura taqlidga asoslangan xulq-atvorning shakllanishi va tartibga solinishida kognitiv (bilish va fikrlash bilan bog'liq) jarayonlarning muhim rolini ta'kidlaydi.

Mashhur amerikalik psixolog Robert Sirs (1908-1998) shaxs rivojlanishining diadik tahlil tamoyilini (ikki kishilik munosabatlar asosida o'rganish) ilgari surgan. Bu tamoyilga ko'ra, ko'plab shaxsiy xususiyatlar dastlab "diadik vaziyatlar"da shakllanadi, ya'ni inson xatti-harakati doimo boshqa shaxs bilan o'zaro munosabatda yuzaga keladi. Diadik munosabatlarga ona va bola, o'qituvchi va o'quvchi, ota va o'g'il kabi juftliklar misol bo'la oladi. Olim shaxsning qat'iy va o'zgarmas xususiyatlari mavjud emas, deb hisoblaydi, chunki xulq-atvor har doim diadadagi (ikki kishilik munosabatdagi) ikkinchi shaxsning xususiyatlari va munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Robert Sirs bola rivojlanishining uch bosqichini ajratib ko'rsatadi. Rudimentar (boshlang'ich) xatti-harakatlar bosqichi - tug'ma ehtiyojlar va erta bolalik davrida, ya'ni hayotning birinchi oylarida o'rganishga asoslangan xulq-atvor shakllanadi. Birlamchi motivatsion tizimlar bosqichi - oila doirasida o'rganish jarayoni, ya'ni sotsializatsiyaning (jamiyatga moslashishning) asosiy bosqichi. Ikkilamchi motivatsion tizimlar bosqichi - oiladan tashqarida o'rganish jarayoni bo'lib, u maktabga kirish va ijtimoiy muhitning kengayishi bilan bog'liq. Shubhasiz, Sirs ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalarning tarbiyaviy ta'sirini asosiy omil sifatida ko'radi. U qaramlikni - ya'ni bolaning e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan ehtiyojini - o'rganish jarayonining markaziy komponenti deb hisoblaydi. Ma'lumki, bolada shakllanadigan dastlabki qaramlik onaga bog'liqlik bo'lib, uning eng yuqori darajasi erta bolalik davriga to'g'ri keladi.

Sirs qaramlik xulq-atvorining besh asosiy shaklini ajratadi. "Salbiy e'tiborni izlash" - bola janjal, itoatsizlik yoki munosabatlarni buzish orqali kattalar e'tiborini jalb qilishga intiladi. Bu holat ko'pincha bolaga



qo'yiladigan talablarning pastligi yoki cheklovlarning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'ladi. "Doimiy tasdiqni izlash" - uzr so'rash, iltimos qilish, ortiqcha va'dalar berish yoki doimiy qo'llab-quvvatlash va tasalli izlash orqali namoyon bo'ladi. Bu ko'pincha bolaga nisbatan haddan tashqari talablar qo'yilishi bilan bog'liq. "Ijobiy e'tiborni izlash" - maqtovg'a intilish, guruhga qo'shilish yoki undan ajralish istagida ifodalanadi. "Yaqin bo'lish" - boshqa bola, bolalar guruhi yoki kattalar yonida doimiy bo'lishga intilish bilan tavsiflanadi. Bu qaramlikning nisbatan yetilmagan, passiv (sust) shakli hisoblanadi. "Tegish va ushlab turish" - tajovuzkor bo'lmagan jismoniy kontaktlar, quchoqlash yoki boshqalarni ushlab turish orqali namoyon bo'ladigan qaramlik shaklidir. Bu ham qaramlikning yetilmagan ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Sirs ota-onalar tarbiya jarayonida muvozanatni saqlashlari lozimligini ta'kidlaydi: juda kuchli ham, juda zaif ham qaramlikka yo'l qo'ymaslik, shuningdek, haddan tashqari yoki yetarli bo'lmagan identifikatsiyadan (o'zini boshqalar bilan tenglashtirishdan) saqlanish zarur.

Bixeviorizm (xulq-atvor psixologiyasi). Yangi xulq-atvor shakllanishida mukofot va jazolarning rolini amerikalik neobixeviorist psixolog Burres Skinner (1904-1990) o'rgangan. Uning nazariyasining asosiy tushunchasi - mustahkamlash (reinforcement) bo'lib, u muayyan xulq-atvorning takrorlanish ehtimolini oshiradi yoki kamaytiradi. Skinner mukofot va mustahkamlash tushunchalarini farqlaydi: mukofot har doim ham xulq-atvorni mustahkamlamasligi mumkin, ammo mustahkamlash har doim xulq-atvorni kuchaytiradi, deb hisoblaydi. U mustahkamlashning quyidagi turlarini ajratadi: ijobiy va salbiy mustahkamlash; birlamchi (ovqat, suv, sovuq va boshqalar); shartli (pul, e'tibor, sevgi ifodalari va boshqalar). Skinner jazolashga nisbatan tanqidiy yondashib, u barqaror va uzoq muddatli samaraga ega emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, salbiy xulq-atvorni yo'qotishning samarali usullaridan biri uni e'tiborsiz qoldirish hisoblanadi.

Amerikalik psixolog J. Gevirs ijtimoiy motivatsiyaning shakllanishi hamda chaqaloq va kattalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish sharoitlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, bolaning xulq-atvori uchun asosiy motivatsiya manbai atrof-muhitning rag'batlantiruvchi ta'siri, mustahkamlashga asoslangan ta'lim jarayoni hamda bolaning turli reaksiyalari (kulish, yig'lash, tabassum va boshqalar) hisoblanadi. Amerikalik psixolog Urie Bronfenbrenner laboratoriya sharoitidagi natijalarni tabiiy muhitda - oila va tengdoshlar guruhida ham tekshirish zarurligini ta'kidlagan. U bolalar xulq-atvori rivojlanishida oila va boshqa ijtimoiy institutlarning tuzilishiga alohida e'tibor qaratgan va o'z tadqiqotlarini real oilalarni kuzatish asosida olib borgan.

Bronfenbrenner amerikalik oilalarda "yosh bo'yicha ajratilish" hodisasini o'rgangan. Bu hodisa yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi, natijada esa ijtimoiy begonalashuvning (o'zini chetga olish, boshqalardan uzoqlashish) yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Bunday

holatda shaxs o'zini atrofdagilardan uzoqlashgan his qiladi, ba'zan esa ularga nisbatan begona yoki salbiy munosabat shakllanadi. Oxir-oqibat, inson o'ziga yoqadigan faoliyatni topgan taqdirda ham, undan tezda qoniqish yo'qolishi va qiziqishning susayishi kuzatiladi. Bronfenbrenner begonalashuvning asosiy sabablarini zamonaviy oilalarning quyidagi xususiyatlari bilan bog'laydi: onalarning mehnat faoliyatiga jalb etilishi; ajralishlar sonining ortishi va otasiz o'sayotgan bolalar ko'payishi; otalarning ish bilan bandligi sababli bolalar bilan muloqotning kamayishi; televizor va shaxsiy xonalar tufayli oilaviy muloqotning cheklanishi; qo'shnilar va qarindoshlar bilan ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi. Ushbu omillar bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, begonalashuvning kuchayishiga olib keladi.

Jian Piaje bolalar kognitiv rivojlanishining (bilish va tushunish qobiliyatining o'sishi) to'rtta asosiy bosqichidan o'tishini ta'kidlaydi. Har bir bosqichda bolaning dunyo haqidagi tasavvurlari sezilarli darajada o'zgaradi. Piaje fikricha, bolalar "kichik olimlar" kabi atrof-muhitni faol o'rganadi va tushunishga intiladi. Intellektual rivojlanish bosqichlari quyidagicha: sensorimotor (sezgi va harakat) bosqich (tug'ilgandan 2 yoshgacha); operatsiyadan oldingi bosqich (2-7 yosh); aniq operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh); formal (mavhum) operatsiyalar bosqichi (11-12 yoshdan boshlab va kattalik davrini qamrab oladi). Sensorimotor bosqichda bola asosan sezgi va harakatlar orqali atrof-muhitni o'rganadi. Operatsiyadan oldingi bosqichda bola o'yin faoliyati orqali dunyoni anglaydi, ammo uning tafakkuri hali egotsentrik (faqat o'z nuqtayi nazaridan ko'ra oladigan) bo'lib, boshqa odamlarning nuqtayi nazarini to'liq tushunish qiyin bo'ladi. Aniq operatsiyalar bosqichida bolalarda mantiqiy fikrlash shakllanadi, biroq bu fikrlash konkret (aniq) vaziyatlar bilan cheklangan bo'ladi. Ular hali mavhum va taxminiy tushunchalarni to'liq tushunish qobiliyatiga ega emaslar. Formal operatsiyalar bosqichi - bu mantiqni rivojlantirish, deduktiv (umumiy qoidadan xususiy xulosaga keladigan) fikrlashdan foydalanish va mavhum g'oyalarni tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Erik Eriksonning shaxsning epigenetik (bosqichma-bosqich rivojlanuvchi) nazariyasi. Amerika psixoanalitiki Erik Erikson (1904-1994) shaxsiyat nazariyasining paydo bo'lishiga psixoanalizga oid ishlar yordam berdi. Erikson Freydning shaxs strukturasini qabul qilib, "Men" va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan psixoanalitik konsepsiyani ishlab chiqdi. U "Men" (Ego)ning shaxs kamolotidagi rolga alohida e'tibor qaratib, inson "Men"ining shakllanish asoslari ijtimoiy muhit va jamiyatning tuzilishida yotadi, deb hisoblagan. Bu xulosaga u urushdan keyingi Amerika jamiyatida kuzatilgan shaxsiy o'zgarishlarni tahlil qilish orqali kelgan. Mazkur davrda odamlar ko'proq tashvishli, qat'iy, befarq va ichki chalkashlikka moyil bo'lib qolgan. Erikson ongsiz motivatsiya g'oyasini qabul qilib, o'z tadqiqotlarida sotsializatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratadi. Uning ilmiy faoliyati psixikani o'rganishda yangi yondashuv -

psixotarixiy metodning shakllanishiga asos bo'ldi. Bu yondashuv shaxs rivojlanishini u yashayotgan tarixiy davr va ijtimoiy-madaniy kontekst (atrof-muhit va madaniyat bilan bog'liq holda) bilan bog'liq tahlil qilishni nazarda tutadi.

Ushbu metod yordamida Erikson Martin Lyuter, Mahatma Gandi, Bernard Shou, Tomas Jefferson kabi taniqli shaxslarning hayot yo'llarini, shuningdek, zamondosh bolalar va kattalarning hayotiy tajribalarini tahlil qilgan. Psixotarixiy yondashuv (shaxs psixologiyasini tarixiy va ijtimoiy muhit bilan birga o'rganish) shaxs psixologiyasi bilan bir qatorda, u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ham teng darajada hisobga olishni talab qiladi. Eriksonning asosiy maqsadi muayyan madaniy muhitni hisobga olgan holda shaxs rivojlanishining psixotarixiy nazariyasini ishlab chiqish edi. U hind qabilalarida o'tkazilgan etnografik (xalqlar madaniyatini o'rganuvchi) tadqiqotlar va AQSH shahar oilalaridagi ota-ona tarbiyasini qiyoslash orqali har bir madaniyatning o'ziga xos tarbiya uslubi mavjudligini aniqladi. Har bir ona o'z tarbiya uslubini yagona to'g'ri yo'l deb hisoblaydi. Biroq, Eriksonning fikricha, onalik uslubi doimo shaxs mansub bo'lgan ijtimoiy guruh - qabila, sinf yoki jamiyat qatlamining kelajakdagi boladan kutayotgan talablari bilan belgilanadi.

Rivojlanishning har bir bosqichi ma'lum bir jamiyat talablari bilan bog'liq bo'lib, shaxs bu talablarni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin; natijada jamiyat uni qabul qiladi yoki inkor etadi. Aynan shu qarashlar Erikson konsepsiyasining ikki muhim tushunchasi - guruh identifikatsiyasi va ego identifikatsiyasining asosini tashkil etadi. Guruh identifikatsiyasi (o'zini bir guruhga mansub deb bilish) bolaning hayotining ilk kunlaridanoq uni muayyan ijtimoiy guruhga moslashtirish va shu guruhga xos dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan jarayonni ifodalaydi. Ego identifikatsiyasi (o'z "Men"ini anglash) esa guruh identifikatsiyasi bilan birga shakllanib, shaxsda o'z "Men"ining barqarorligi va davomiyligi hissini yaratadi.


Erikson hayotiy sikl bosqichlarini ham ishlab chiqqan. Har bir bosqich jamiyat tomonidan qo'yiladigan muayyan rivojlanish vazifalari bilan tavsiflanadi. Ushbu vazifalarning hal etilishi shaxsning psixofiziologik rivojlanish darajasi hamda u yashayotgan jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga bog'liq. Eriksonga ko'ra, hayotiy siklning har bir bosqichida rivojlanish inqirozi yuzaga keladi va bu jarayon turli identifikatsiya shakllarining shakllanishi bilan kechadi. Uning fikricha, asosiy shaxsiy inqiroz o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu davrda shaxs sinov va tajriba orqali o'z hayotiy o'rnini aniqlashga intiladi. Ushbu inqirozning kechishi oldingi bosqichlardagi (ishonch, mustaqillik, tashabbuskorlik va boshqalar) inqirozlarning qanday hal etilganiga hamda jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga bog'liq bo'ladi. Agar avvalgi inqirozlar muvaffaqiyatli hal etilmasa, shaxs identifikatsiyasida kechikish yoki buzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Erikson psixologiyaga “ritualizatsiya” (marosimlashtirish) tushunchasini kiritgan. Ritual (marosim) - bu ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida kelishuv asosida shakllanadigan, muayyan vaziyatlarda takrorlanib turadigan o'zaro ta'sir shaklidir (masalan, salomlashish, bir-birini tan olish, tanqid qilish va boshqalar). Bir marta shakllangan marosim keyingi rivojlanish bosqichlarida ham saqlanib qoladi va murakkab tizim tarkibiga ketma-ket qo'shib boradi. Eriksonning konsepsiyasi inson hayot yo'lining epigenetik (bosqichma-bosqich va rejali) nazariyasi sifatida talqin qilinadi. Unga ko'ra, rivojlanish umumiy reja asosida kechadi: har bir bosqich ma'lum vaqt oralig'ida eng qulay sharoitda rivojlanadi va barcha bosqichlar birgalikda funksional (vazifaviy) yaxlitlikni ta'minlaydi. Erikson fikricha, bosqichlarning ketma-ketligi biologik kamolot bilan bog'liq bo'lsada, rivojlanish mazmuni jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablariga bog'liq. U o'z konsepsiyasini to'liq shakllangan nazariya emas, balki shaxs rivojlanishi nazariyasini yaratishga xizmat qiluvchi asos sifatida baholagan.

Konvergenziya (birlashuv) nazariyasi nemis psixologi Vilgelm Shtern tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u biologik (irsiy) va ijtimoiy (muhit) omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bolaning aqliy rivojlanishi irsiyat va atrof-muhit ta'sirining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Nazariyaning asosiy savoli - orttirilgan xulq-atvor shakllari qanday paydo bo'ladi va ularga irsiyat hamda muhit qanday ta'sir ko'rsatadi, degan masaladan iborat. Psixologiyada bu borada ikki asosiy qarash mavjud edi: empirizm - inson “bo'sh varaq” (tabula rasa - yozilmagan taxta) sifatida tug'iladi; nativizm - insonda tug'ma g'oyalar mavjud. Shtern bu ikki qarashni qarama-qarshi qo'ymasdan, haqiqat ularning uyg'unligida ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aqliy rivojlanish ichki (tug'ma) imkoniyatlar va tashqi sharoitlarning o'zaro ta'siri natijasidir, biroq yetakchi rol baribir irsiy omillarga tegishlidir. Masalan, muhit bolaga o'yin uchun material beradi, ammo qanday va qachon o'ynashi uning tug'ma xususiyatlariga bog'liq.

Shtern rekapitulyatsiya (qisqacha takrorlash) g'oyasini ham qo'llab-quvvatlagan va bola rivojlanishini insoniyat taraqqiyoti bosqichlari bilan qiyoslagan. U quyidagi bosqichlarni ajratgan: hayotning dastlabki oylarida - refleks va impulsiv (shoshilinch, o'ylamay qilingan) xatti-harakatlar ustun (past darajadagi biologik bosqich); keyingi davrda - predmetlarni ushlash va taqlid qilish rivojlanib, yuqori darajadagi hayvonlarga o'xshash bosqich; tik yurish va nutqni egallash orqali insoniy rivojlanishning boshlanishi; ilk bolalikda - o'yin va ertaklar orqali ibtidoiy madaniyat darajasi; maktab davri - ijtimoiy rollarni egallash va madaniy rivojlanishning yuqori bosqichi. Bu nazariyani xalq orasidagi quyidagi iboralar ham ifodalaydi: “Olma daraxtdan uzoqqa tushmaydi” (irsiyat), “Kim bilan bo'lsang, shunga o'xshaysan” (muhit). Ingliz psixologi Gans Ayzenk (1916-1997) aql darajasi taxminan 80 foiz irsiyat va 20 foiz muhit ta'siri bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Shuningdek, psixologlar egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar orqali biologik va ijtimoiy omillarning rivojlanishga ta'sirini o'rganishgan. Bu metod egizaklar usuli deb ataladi.


SHAXSGA KOGNITIV YONDASHUVNING RUS PSIXOLOGLARI TOMONIDAN TALQIN ETILISHI



Rus psixologlari tomonidan shaxsga kognitiv (bilish va tushunish bilan bog'liq) yondashuv tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq: XVII asr oxiri - XX asr boshi (podshohlik davri); XX asr boshi - oxiri (yakka partiya rahnamoligi davri); XX asr oxiri - XXI asr (mustaqillik davri). Qadimgi rus manbalariga ko'ra, ilk pedagogik-psixologik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-axloqiy negizda shakllana boshlagan. Ushbu yo'nalishdagi manbalarda asta-sekin psixologik qarashlar ham ilgari surilib, tarbiyaning diniy-psixologik asoslariga urg'u berilgan. Bu jarayon XVIII asrdan boshlab rus tarixchisi Vasiliy Tatishchev (1686-1750)ning "Fanlar va bilim yurtlarining foydasi to'g'risida suhbat" asarida o'z aksini topgan. O'sha davrning yirik namoyandalaridan biri Nikolay Novikov (1744-1818) yosh avlodni bilim bilan qurollantirish va bu orqali kelajakka ishonchni mustahkamlash g'oyasini ilgari surdi hamda uni amaliyotda isbotladi. U o'z asarlarida bolaning rivojlanishida idrok (sezish va anglash), tafakkur (fikrlash), xotira (eslab qolish), his-tuyg'u va xulq-atvorga alohida e'tibor berish yuqori natijalarga olib kelishini ta'kidlagan.

Podshohlik davrining yana bir yirik vakili Aleksandr Radishchev (1748-1802) "Peterburgdan Moskvaga sayohat" asarida pedagogika va psixologiyani jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini alohida ta'kidlab, bu fanlarsiz jamiyatning kelajagi yo'qligini keng jamoatchilikka yetkazishga harakat qilgan. Psixologik bilimlarning rivojlanishida Aleksandr Gersen, Nikolay Chernishevskiy, Ivan Dobrolyubov, Vissarion Belinskiy kabi ma'rifatparvarlarning shaxs shakllanishiga oid qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Rossiyada ilmiy asosga ega psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida Aleksandr Lazurskiy, Konstantin Ushinskiy, Ivan Sikorskiy, Aleksandr Nechayev, Pyotr Lesgaft, Nikolay Kapterev kabi olimlarning hissasi katta bo'ldi.

Ularning "Inson tarbiya predmeti", "Pedagogik psixologiya", "Maktab o'quvchisining tavsifi", "Bola ruhi", "Oilada bola tarbiyasi va uning ahamiyati" kabi asarlari psixologiya fanining nazariy va amaliy rivojiga kuchli turtki berdi. Shuningdek, Peterburgda Grigoriy Rossolimo tomonidan "Yosh psixologiyasi va nevrologiyasi" laboratoriyasining tashkil etilishi ham muhim voqea bo'ldi.



Shu davrda “Erkin tarbiya”, “Tarbiya xabarları”, “Rus maktabi” kabi ilmiy jurnallar chop etila boshladi.

Mazkur asarlar va ilmiy maqolalarda insonning rivojlanishi va tuzilishi haqida turli fikrlar ilgari surildi. Natijada ilmiy bahslar kuchayib, insonning psixologik, anatomik (tana tuzilishi), fiziologik (organlar faoliyati) va biologik jihatlari tashqi muhit bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganila boshlandi. Bu esa bolalarning kognitiv rivojlanishini tushunishda muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Rus fiziologi Ivan Sechenov psixikaning reflektor (tashqi ta’sirotda javoban paydo bo‘ladigan) xususiyatini ochib berib, psixologik tadqiqotlar rivojiga keng yo‘l ochdi. U bilish jarayonlari, his-tuyg‘ular va “men”ni anglashning nerv-fiziologik mexanizmlarini ilmiy asoslab berdi. Keyinchalik Ivan Pavlov va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan shartli reflekslar nazariyasi, ikkinchi signal tizimi (nutq va tafakkur bilan bog‘liq) haqidagi g‘oyalar psixologiya fanida tub burilish yasadi.

Mazkur ilmiy asoslar Pavel Blonskiy, Nikolay Ribakov, Pavel Efrusi, Aleksandr Maxnach, Evgeniy Rudenskiy, Konstantin Kornilov, Lev Vigotskiy kabi olimlarning shaxs rivoji va ontogenez (shaxsning tug‘ilishdan to voyaga yetguncha bo‘lgan individual rivojlanishi) psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlari uchun keng imkoniyat yaratdi. Rus olimlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-kognitiv yondashuv (jamiyat va bilish jarayonlarini birgalikda o‘rganuvchi qarash) xulq-atvor va kognitiv jarayonlarning uyg‘unlashuvi natijasidir. Bu yondashuv insonning shaxsiy va kognitiv jihatlari bir butun holda ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. O‘z-o‘zini anglash muammosini o‘rganishda Aleksey Bodalev va Vladimir Stolin uni “insonning o‘zini bilish jarayoni” sifatida talqin qiladi. Igor Kon esa o‘zlikni boshqa subyektlardan (shaxslardan) ajratib turuvchi tizim

sifatida izohlaydi. Aleksey Leontiyevning fikricha, o‘z-o‘zini anglash shaxsning tizimli xususiyati bo‘lib, inson nafaqat tashqi voqelikni, balki o‘z ichki kechinmalarini ham anglay oladi. Ko‘plab rus olimlari (Aleksandr Asmolov, Vladimir Stolin, Sergey Rubinshteyn va boshqalar) o‘z-o‘zini anglashni kognitiv (bilishga oid), hissiy va xulq-atvor komponentlaridan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

I.I. Chesnokova o‘z-o‘zini anglashni uch tarkibiy qismdan iborat deb hisoblaydi: o‘zini bilish (o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash); o‘ziga nisbatan hissiy munosabat (o‘ziga bo‘lgan hurmat yoki tanqidiy qarash); o‘z xatti-harakatlarini boshqarish (o‘zini tutish

va harakatlarini nazorat qilish). Xulosa qilib aytganda, rus psixologlari talqinida o'z-o'zini anglash murakkab va ko'p qirrali ruhiy jarayon bo'lib, u insonning ijtimoiy faoliyati, muloqoti va tajribasi asosida shakllanadi. Ushbu jarayon shaxsning kognitiv (bilishga oid), hissiy va irodaviy (iroda bilan bog'liq) jihatlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda uning rivojlanishiga xizmat qiladi.



SHAXS NAZARIYASIGA MAHALLIY PSIXOLOGLAR TOMONIDAN KOGNITIV YONDASHUV

Shaxs nazariyasiga mahalliy psixologlarning yondashuvi tarixan asosan ikki katta davrga bo'linadi: birinchi davr - sobiq Ittifoq davri qarashlari, ikkinchi davr - mustaqillik davri qarashlari. Sobiq Ittifoq davrida mahalliy psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yakka partiya g'oyasiga bo'ysundirilgan holda amalga oshirilgan bo'lib, unda asosan "kommunizm quruvchisi"ning axloqiy me'yorlaridan kelib chiqilgan. Bundan tashqari, hukmron partiya yetakchilarining fikrlaridan tashqari qarash bildirish yoki mashhur olimlarning fikriga qarshi chiqish davlat siyosatiga qarshi chiqish bilan teng deb baholangan. Barcha fanlar qatori psixologiya fani ham kommunistik g'oyani targ'ib qilishga xizmat qilgan va shu g'oyani ilgari surgan "daho"larning fikrlarini qo'llab-quvvatlashi talab etilgan. Mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv rejalari va dasturlar ham markazda ishlab chiqilgan va undan chetga chiqishga ruxsat berilmagan. Ilmiy darajalar (fan nomzodi va fan doktori) ham faqat markaz nazorati ostida himoya qilingan. Shunga qaramay, bir qator fidoyi o'zbek psixologlari milliy psixologiya fanini rivojlantirish yo'lida samarali faoliyat olib borib, ilmiy daraja va unvonlarga erishganliklarini alohida ta'kidlash lozim.

Mazkur mavzuni yoritishdan oldin, O'zbekistonda psixologiya fanining XX asr boshlaridagi rivojlanishiga qisqacha to'xtalamiz. Dastlab psixologiya pedagogika bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. 1918-yilda Toshkent shahrida ilk pedagogik va psixologik markazlar tashkil etilgan. Pedagogik muzey va laboratoriya nafaqat ilmiy markaz, balki universal ta'lim-tarbiya muassasasi vazifasini ham bajargan. Bu yerda ta'lim metodlari ishlab chiqilib, o'quv muassasalariga tatbiq etilgan. Shu bilan birga, eksperimental (tajribaviy) psixologik laboratoriya ham faoliyat yuritgan. 1919-yil 1-aprelda K.Xorvat maorif komissariga murojaat

qilib, ko'zi ojiz, kar-soqov, ruhiy kasal va psixik rivojlanishi buzilgan bolalami davlat tarbiyasiga olish zarurligini ta'kidlagan. U quyidagi tizimni taklif etgan: diagnostika (tadqiqot darajasi); davolash (tibbiy daraja); ta'lim va tarbiya (pedagogik daraja).

1929-yilda tashkil etilgan Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti mamlakatda pedagogik va psixologik tadqiqotlarning markaziga aylandi. Bu institutda etnopsixologik (xalqlarning psixologik xususiyatlariga oid) xususiyatlar, bolalar rivoji va ta'lim metodlari o'rganilgan.



30-yillarda bu institutda mashhur olim Aleksandr Romanovich Luriya faoliyat yuritgan va uning tadqiqotlari psixologiya faniga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, P.Ivanov 1927-yilda Samarqandda eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil etib, 1940-yilda birinchi psixologiya darsligini yaratgan. Keyingi yillarda M.Vohidov, M.G'ayratovich Davletshin, I.B.Krasnoboiev kabi olimlar psixologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Ergash G'ozievning shaxs rivojlanishi konsepsiyasi. G'oziev shaxs rivojlanishini bosqichma-bosqich tahlil qilib, quyidagi davrlarni ajratadi. Birinchi, homiladorlik (embrional) davri. Bu davrda jismoniy va nerv tizimi shakllanadi. Ota-onaning mas'uliyati juda muhim hisoblanadi. Ikkinchi, individ davri (tug'ilishdan nutq paydo bo'lguncha). Bu davr moslashuv (adaptatsiya), harakatlarning rivojlanishi, idrok (sezish va anglash), xotira va sezgi shakllanishi, emotsional rivojlanishni o'z ichiga oladi. Uchinchi, inson davri (1,5 yoshdan 6-7 yoshgacha). Bu davrda "Men" tushunchasining shakllanishi, nutq rivoji, ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtirish, maktabga tayyorgarlik amalga oshadi. To'rtinchi, o'smirlik davri. Mustaqillik kuchayadi, tafakkur (fikrlash) va fantaziya (xayol) rivojlanadi, o'zini anglash jarayoni kuchayadi. Beshinchi, yetuklik bosqichi. Kasbiy rivojlanish, ijtimoiy mavqe (jamiyatlardagi o'rin) shakllanishi, dunyoqarash barqarorlashuvini qamrab oladi. G'oziev shuningdek, shaxs kamolotining yuqori bosqichlarini ham ajratadi: kasbiy yetuklik, fanlararo bilimdonlik, aqliy donishmandlik, umumbashariy daholik.

M.G'ayratovich Davletshinga ko'ra, "Shaxs - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam". U quyidagi omillarni asosiy deb hisoblaydi: munosabat, onglilik, individuallik (betakrorlik). Shuningdek, u o'z-o'zini anglashni shaxs shakllanishining muhim sharti deb hisoblaydi. Shaxs rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari: ehtiyojlar va ularning qarama-qarshiligi, yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishi. Davletshin alohida ta'kidlaydi: "Shaxs shakllanishida yetakchi o'rin tarbiyaga tegishli". Tarbiya shaxs rivojini yo'naltiradi, jamiyat talablariga moslashtiradi va ehtiyojlarni boshqarishni o'rgatadi. O'zbekistonda psixologiya fani tarixiy jihatdan murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lsada, bugungi kunda u jadal rivojlanmoqda. Mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan shaxs nazariyalari, ayniqsa kognitiv yondashuvlar (bilish va tushunishga asoslangan qarashlar), shaxs rivojlanishini chuqur tushunishga xizmat qilmoqda. Bu esa ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTLARIDA SHAXSNI BILISH MASALALARI

O'zbekiston mustaqillikka erishishi natijasida Sharqda yashab o'tgan ko'plab ulug' allomalar, faylasuflar va olimlarning nomlari tiklandi. Jumladan, adabiyot, falsafa, astronomiya, tibbiyot va psixologiya sohalarida jahonga mashhur bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Bedil, Mahmud Zamaxshariy kabi yuzlab mumtoz olimlarning qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sharq mutafakkirlari nafaqat dunyoviy fanlar, balki inson shaxsi, uning bilish qobiliyati, aql-zakovati va axloqiy kamoloti haqida ham chuqur ilmiy meros qoldirganlar.

Sharq mutafakkirlarining turli fanlar doirasidagi qarashlarini tahlil qilishdan oldin, ularning ilmga bo'lgan munosabatini o'rganish zarur. O'rta asrlarda yashagan har qanday mutafakkir o'z davrining ijtimoiy, madaniy va falsafiy qarashlaridan kelib chiqqan holda ilmiy masalalarga yondashgan. Hozirgi kunda ham ilm-fan va inson kamoloti o'rtasidagi bog'liqlik masalasida turli qarashlar mavjud. Biroq bu holat ayni masalani chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari "ilm" tushunchasiga keng ma'no berib, uni insonning jismoniy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol topishining asosiy vositasi deb bilganlar.

Sharq allomalari insonning bilish qobiliyati, uning aql-idroki va zehni rivojlantirishning yo'llarini o'rganishgan. Abu Nasr Farobiy aqlni bir necha bosqichga bo'lib, insonning bilish jarayonini nazariy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, inson aqli tashqi dunyoni bilish orqali asta-sekin kamolotga erishadi. Abu Ali ibn Sino esa inson ruhiyatini, uning hissiyotlari, aql-idroki va bilish qobiliyatlarini chuqur ilmiy asosda o'rgangan. U inson shaxsining rivojlanishida tajriba va kuzatishning muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Beruniy insonning tabiat va jamiyat bilan munosabatini tahlil qilib, uning aqliy kamolotiga ijtimoiy muhit va ta'limning ta'sirini alohida qayd etgan.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida inson kamolotining yo'llari, uning bilim olishi, axloqiy yetukligi va jamiyatda tutgan o'rni haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Alisher Navoiy esa o'z asarlarida inson ruhiyatining nozik tomonlari, uning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari va kamolot sari intilishini badiiy-psixologik jihatdan mahorat bilan tasvirlab bergan. Abdurahmon Jomiy insonning o'z-o'zini bilishi va o'z kamolotiga erishish yo'llari haqida chuqur falsafiy qarashlarni ilgari surgan.

Jaloliddin Davoniy inson shaxsining shakllanishida axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatgan va inson o'zining yaxshi fazilatlarini rivojlantirish orqali kamolotga erishishi mumkinligini ta'kidlagan. Bedil o'z asarlarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari va o'z-o'zini anglashga intilishi haqida chuqur psixologik kuzatuvlarni ifoda etgan.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida shaxsni bilish masalasi nafaqat falsafiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Ular insonning bilish qobiliyati, zehni va aql-idrokini rivojlantirishni ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifasi deb bilganlar. Mutafakkirlarning qarashlariga ko'ra, inson o'z shaxsini bilishi, uning kuchli va zaif tomonlarini anglab yetishi kamolotga erishishning birinchi qadamidir. Bu g'oyalar bugungi kunda psixologiya va pedagogika fanining asosiy tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda, shaxsga kognitiv yondashuvning tarixiy ildizlarini ko'rsatib beradi.

Bu yerda "ilm" tushunchasi davr talabidan kelib chiqib talqin qilinishi zarur. "Ilm" deganda har bir inson uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallash tushuniladi. Sharq olamida qadiryatlardan kelib chiqqan holda bevosita shaxs va shaxs rivojlanishini ilmiy asosda tahlil etishga katta hissa qo'shgan Kubroviya ta'limoti g'oyalari hozirgi kunda ham o'z ta'sirini yo'qotgani yo'q. Najmiddin Kubro fors va arab tillarida "Odob-us-so'fiya", "Favoyihul Jamol va favotihul-Jalol", "Faqirlik haqida risola", "Hidoyat-ut-tolibin", "Minhoj-us-solihin", "Ilal-xoimil-xoif min lavmat illoim", "Al-usul-al-ashara", "As-soir-ul-xoir", "As-sayr val-xayr" kabi ko'plab asarlar muallifidir. "Odob-us-so'fiya" asari Istanbul, Qozon, Tehron kabi shaharlarda bir necha bor nashr etilgan bo'lib, eng keng tarqalgan asarlardan biri hisoblanadi.

Ahmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro hijriy 540-yilda Xorazmning Xiva shahrida dunyoga kelgan. Hijriy VI-VII asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Shamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar uning shogirdlari bo'lgan. Olim Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniyning "Tasavvuf va inson" asarida keltirilishicha: "Shayx Najmiddin Kubro oliy iste'dod va yuksak zakovat egasi bo'lganligi sababli har qanday savolga qoniqarli javob bera olgan, murakkab muammolarni yechishga muvaffaq bo'lgan hamda ilmiy bahs va munozaralarni sevgan. U doimiy ravishda boshqalar ustidan g'alaba qozongan. Shu sababli uni "at-Tommat al-Kubro" (eng katta bilimdon) deb ataganlar. Keyinchalik "at-Tommat" so'zi qisqarib, "Kubro" shaklida uning laqabiga aylangan".

Inson va uni tarbiyalash, yetuk shaxsni kamolga yetkazish masalasi qadimdan Sharq olimlari va mutafakkirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Buyuk olimlar asarlarining



o'ziga xos jihati ularning ilg'or g'oyalari va inson kamolotiga oid qarashlarini o'zida mujassam etganligidir. Ularning inson, uning hayotdan maqsadi, mukammal jamiyat va komil inson haqidagi g'oyalari milliy g'oya takomili uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shayx Najmiddin Kubro insonning ichki psixologik faolligini uyg'otish va uni shakllantirishga qaratilgan o'ziga xos uslubni ishlab chiqqan bo'lib, u quyidagi bosqichlardan iborat: tavba (o'z xatolarini tan olish), zuhd (tejamkorlik), tavakkal (tayanch), qanoat (boriga shukr qilish), uzlat (vaqtida yolg'iz qolish), tavajjuh (e'tibor), sabr (bardosh), muroqaba (kuzatish), zikr (takror) va rizo (qoniqish). Najmiddin Kubro ilmiy bilim orqali insonning ichki ruhiy dunyosini boshqarish va yo'naltirish, uni rivojlantirish yo'llarini ham ko'rsatgan.

Mutafakkirning fikricha, inson "olami sug'ro" (kichik olam) bo'lib, unda "olami kubro" (katta olam - butun olam)ning barcha xususiyatlari mujassamdir. Uning ta'limotiga ko'ra, ruhiy kechinmalarni anglash va boshqarish uchun "latoif" (nozikliklar) nazariyasi ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga binoan inson ruhi ko'zga ko'rinmas latif markazlardan iborat bo'lib, maxsus mashqlar orqali bu markazlarni uyg'otish, kuchaytirish va anglab borish mumkin. Haqiqat yo'lini qidiruvchi inson bu bosqichlarni bosib o'tishi uchun unga tajribali ustozni rahnamolik qilishi zarur hisoblanadi. Kubro ilohiy ma'rifatni faqat o'zligini butkul yo'qotish orqali idrok etish mumkin degan fikrga e'tiroz bildiradi va tafakkuriy-aqliy bilimga e'tibor qaratadi. Bunday yondashuvni Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband ham qo'llab-quvvatlagan. Kubro insonning ruhiy kechinmalari va nozik holatlarini chuqur bilgan holda "latoif" nazariyasini ishlab chiqqan.

Bu nazariyaga ko'ra, inson ruhi ko'zga ko'rinmas latif markazlardan iborat bo'lib, ular ong va tuyg'u, ruh va jism o'rtasidagi nozik bog'lanishni ifodalaydi.

Ularni anglash mushkul bo'lsa-da, inson hayotida ularning ahamiyati juda katta. Ruhiiy-tarbiyaviy mashqlar davomida bu latofatlarni (ichki hislar) turli holatlar o'zgarishi, ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qilish mumkin. Kubro nazarida nuqta, dog' va doira insonning ichki holati o'zgarishida muhim ramziy ahamiyatga ega. Doira - tabiatdagi takrorlanuvchi jarayonlar va aylanish timsoli, dog' - moddiy dunyo ramzi, nuqta esa - yagonalik, markaz va maqsad ifodasidir. Doira doimiy harakatda bo'lib, dog'ni ham o'z ichiga oladi, biroq barcha jarayonlar markazga - nuqtaga intiladi. Najmiddin Kubro aql va nafsni (ichki istaklarni) bir-biriga qiyoslab,

ularni ikki kuchga o'xshatadi. Ya'ni, ularning har biri o'z kuchini ishga solib, ikkinchisini yengishga shay turgan, bir lahza ham bir-biridan ko'z uzmaydigan holatda tasvirlanadi. Qaysi biri g'aflatga (e'tiborsizlikka) berilsa, shu zahoti mag'lubiyatga uchraydi. O'z nafsiga nisbatan hushyor bo'lgan kishi uning kuchidan qutuladi va turli makr va hiylalardan (ayyorliklardan) yiroq bo'ladi. Najmiddin Kubro ba'zi zaif kishilarning o'z zo'r bergan ishlarini ko'z-ko'z qilishini, o'z amallariga ortiqcha baho berib, ikkiyuzlamachilik qilishini tanqid qiladi. U xalq tomonidan hurmat ko'rsatilishini yoqtirib, qo'l o'ptirishni istash, o'zini tabarruk sanash va ziyorat qilinishni xush ko'rish, odamlar olqishini kutish kabi holatlarni ham qoralaydi. Xullas, Najmiddin Kubroning ranglar va shakllar bilan bog'liq ruhiy-psixologik tasvirlari keyingi davr mutafakkirlari tomonidan yanada rivojlantirilgan. Ta'kidlash joizki, Sharq xalqlari qadriyatlarida shakllangan inson ichki olamini faollashtirish va boyitish usullari insonning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu usullar zamonaviy psixologiya nuqtayi nazaridan ham ma'lum darajada o'rganilib, inson miya imkoniyatlari bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinmoqda va amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ilm-fanga berilgan yuksak e'tiborni "ilm dini" deb atash asoslidir. O'z davridayoq buni chuqur anglagan ajdodlarimiz - Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar ilmni tasnif qilayotganda uni "diniy" va "dunyoviy" deb ajratmaganlar. Shu ma'noda, ilm-fan va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarning mezonlari va chegaralarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammoni yoritishda ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilimlarning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish hamda quyidagi ta'rif va tasniflarga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ilmga berilgan ta'rif quyidagicha ifodalanadi: "Ilm - kuzatuv, tajribalar, xulosalar asosida vujudga kelgan qonun-qoidalar va faoliyatlardan iborat jarayondir". Umumiy bilimlarni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslarini ko'rsatish ilmning umuminsoniy asoslariga tayangan holda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, "ilm" so'zining faqat zamonaviy ta'rif bilan cheklanib qolmaslik lozimligi ta'kidlanadi. Chunki bunday tor talqin ko'proq moddiy olam bilan bog'liq bo'lib, borliqni faqat osmon, yer va ular orasidagi moddiy dunyo bilan chegaralashga olib keladi.

Ilm-fan tizimida mantiq ham alohida o'rin tutadi va u ikki qismga ajratiladi: matematika va aniq fanlar, hamda ilohiyot (ma'naviy bilimlar). Mazkur tasnifda ilohiyot aql asosida shakllangan bilimlar tizimi sifatida qaraladi. Axloqiy qarashlar ham asosan aqlga tayanadi. Shu jihatdan ilmiy tizim mantiq asosida shakllanadigan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Insonni bilish nuqtayi nazaridan psixologik yondashuvda tasavvuf ta'limoti, xususan, Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband tariqatlari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu ta'limotga ko'ra inson ikki jihatdan tarkib topadi: jismoniy (tana) jihat va ruhiy (ichki dunyo) jihat. Inson jismoniy jihatdan butun jismoniy va tabiiy olamning kichik modeli

sifatida qaraladi. Uning ruhiy-ma'naviy tomoni esa vaqt va makonga bog'liq bo'lmagan katta ruhiy olamning aksi (in'ikosi) sifatida talqin etiladi. Bu tushuncha zamonaviy psixologiyada "psixosfera" yoki "ruhiy olam modeli"ga yaqin mazmunga ega. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ilm-fan va ma'naviy bilimlar yo'nalishiga tamal toshini qo'ygan Sharq mutafakkirlarining qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Vatandoshimiz Jaloliddin Rumiy haqida zamonaviy olimlar shunday fikr bildiradilar: u o'z davridan keyin ham barcha ulug' siymolarga qiyoslanganda, hech kimga o'xshamaydigan, Sharqning ham, hozirgi davrning ham mo'jizaviy siymosidir. Mavlono Rumiy yuksak aqliy va ruhiy salohiyatga ega mutafakkir bo'lib, hatto Alisher Navoiy uni "buyuklikning ko'z ilg'amas cho'qqisi" deb ta'riflaydi. U islom olamining mutafakkiri bo'lsa-da, uning qarashlarida o'ta biryozlama qarashlar yoki tor doiradagi fikrlar kuzatilmaydi. Aksincha, u ma'naviyat va ruhiy tarbiya g'oyalarini inson hayoti bilan uyg'un holda, sodda va hayotiy misollar orqali izohlaydi. Rumiy inson aqli va ruhiyatining qudratini chuqur tahlil etadi. U insonni tabiiy holatida olib o'rganadi, uning ichki ehtiyojlari va ruhiy holatini anglashga harakat qiladi. Mavlono Rumiy barcha insonlar - jamdagi o'rnidan, ijtimoiy holatidan qat'i nazar, teng ekanini ta'kidlab, "Yo'llar turlicha, ammo maqsad bitta" degan g'oyani ilgari suradi.

Uning "Fihi mo fihiy" asari falsafiy mazmuni bilan mashhur bo'lib, keyingi davrlardagi G'arb falsafasidagi ayrim qarashlar (jumladan, Kant va Gegel g'oyalari) bilan qiyoslanganda, inson va borliq haqidagi chuqur falsafiy tahlillar bundan ancha ilgari Sharq mutafakkiri tomonidan bayon etilganini ko'rsatadi. Rumiyning "Ichingdagi - ichingdadur" asari esa insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va ma'naviy kamolotini yuksak badiiy-falsafiy darajada ifodalovchi asar bo'lib, unda shoh va gadoning, olim va oddiy insonning tengligi g'oyasi ilgari suriladi. Uning asari insoniylik va ma'naviyat o'rtasidagi mustahkam vosita hisoblanadi. Rumiy inson aqliga yuksak baho berib, olimning barcha harakatlarini boshqaruvchi kuch - aql ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, barcha insonlar olimlar tarqatgan ilm nuridan bahramand bo'ladi, chunki olim badavlat insonga, nur sochuvchi quyoshga o'xshaydi. U olimning asosiy vazifasini takabburliksiz yordam berish va ezgulik ulashish deb biladi.

Mutafakkir olimning qudratini yuksak baholab, shunday deydi: "Olim toshlardan la'l va yoqut yaratishi, tuproqdan iborat toshlardan esa mis, oltin, kumush va temir ma'danlarini hosil qilishi mumkin. Uning ishining mazmuni - hadya qilish va ezgulik ulashishdir". Bu fikrlar inson aqliy salohiyatidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Olimlar, hunarmandlar va ziyolilar jamiyat rivojining asosiy tayanch kuchi ekanligi g'oyasi bugungi "Yangi O'zbekiston"da e'lon qilingan "Uchinchi Renessans" konsepsiyasiga hamohangdir. Rumiy ta'limotini chuqur anglash uchun nafaqat mantiqiy va falsafiy tayyorgarlik, balki yuksak ma'naviy-ruhiy kamolot ham zarur. Uni biryozlama tushunish ilmning tor doirada qolishiga olib keladi, keng qamrovli tushunish esa insonning ichki olami, bilim takomili va ruhiy qarama-qarshiliklar uyg'unligini anglashga xizmat qiladi.

Mutafakkir insonni nafsdan (past istaklardan) poklanishga chaqiradi. U insonning asl dushmani - o'zining past istaklari ekanini ta'kidlab, uni jilovlash zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, ruh va jism bir butunlikni tashkil etadi va hayot aynan shu birlik asosida davom etadi. Rumiylar: "So'z haqiqatning soyasidir, u bahonadir. Insonni insonga bog'lovchi narsa so'z emas, balki ruhiy birlikdir", - deb ta'kidlaydi. Rumiylar insonni koinotning bir qismi, kichik olam sifatida ta'riflaydi. Inson ichida butun olam sir-asrorlari mujassam, biroq nafs va g'aflat (e'tiborsizlik) pardalari ularni anglashga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, u insonlarning barchasi bir xil emasligini, ularning individual xususiyatlari ijtimoiy muhit, tarbiya va tug'ma qobiliyatlar bilan belgilanishini ham ta'kidlaydi. Jamiyatda tartib va barqarorlik qonunlarga amal qilish orqali ta'minlanadi. Rumiylar fikricha, aqlga itoat qilinmagan joyda pushaymonlik va tartibsizlik yuzaga keladi. Shuning uchun insonning eng muhim fazilati - ilm va aql bilan yashashdir.

U yana shunday deydi: "Ilmli inson mushk kabi atrofga xushbo'y taratadi va oxir-oqibat o'zi ham mushkka aylanadi. Ilm va amal (bilim va unga amal qilish) birlashgan inson esa eng mukammal zotdir". Demak, ilm insonni yuksaltiruvchi eng muhim omildir. Mavlono Rumiylarning ushbu fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ilm-fan va ma'naviyat uyg'unligiga asoslangan yangi jamiyat qurilishida muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Jaloliddin Rumiylar merosini o'rganish hozirgi davrda barcha ziyolilarimizning muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Chunki bu merosdan yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda chuqur mulohazali, falsafiy va mantiqiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim manba sifatida foydalanish zarur.

Aziziddin Nasafiy inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish masalasini barcha davrlarda dolzarb muammo sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, insonning ichki olami, ruh va jism o'rtasidagi kurash mutafakkirlarni doimo qiziqtirib kelgan. O'z zamonasining yirik ilm namoyandalardan biri bo'lgan Aziziddin Nasafiy o'zining "Zubdat ul-haqoyiq" asarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratadi. Ma'naviy ta'limotga ko'ra, komillikka erishish yo'llaridan biri nafs (ichki ehtiyoj va istaklar) darajalarini bosib o'tish orqali "o'zlikni anglash"dir. Bu jarayon nafsning yetti bosqichi orqali ifodalanadi. Nafs ammora - bu bosqichda inson tamoman hayvoniy va shahvoniy istaklarning asiriga aylanadi: jaholat, ochko'zlik, g'azab, gina, hasad, loqaydlik va boshqalar ustun bo'ladi. Nafs lavvoma - bu bosqichda insonda yomonliklardan voz kechish va yaxshilikka intilish istagi paydo bo'ladi. U munofiqlik, tuhmat, yolg'on guvohlik kabi illatlardan qutulishga harakat qiladi. Nafs mulhima - mashq va mashg'ulotlar natijasida qalbdagi haqiqiy ruhiy zavq va chuqur qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Nafs mutma'inna - bu darajada inson o'z nafsini jilovlaydi, moddiy mayllardan voz kechadi va har narsada o'ziga xos ma'noni ko'ra oladi. Nafs marziya - bu bosqichda inson o'z qilgan ishidan rozilik va ichki qoniqishga erishadi, unga yangi haqiqatlar eshigi ochila boshlaydi. Nafs komila - bu eng yuksak maqom bo'lib, inson to'liq ma'naviy

kamolotga erishadi, o'z nafs ustidan hukmronlik qiladi va ruhiy poklikka yetadi. Ushbu bosqichlar nafsni yengish orqali insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi yo'lni ifodalaydi.

Mazkur jarayonni amerikalik psixolog Abraham Maslouning "ehtiyotlar ierarxiyasi" (ehtiyotlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi) nazariyasi bilan qiyoslash mumkin. Aziziddin Nasafiy ta'limotida komillik bosqichlari aynan ruhiy yuksalish va ma'naviy poklanish asosida belgilanadi. Jamiyatda turli tabaqalar va ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishi nafs darajalarining turlicha ekanligi hamda ruhiy kamolotning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Shu bois inson kamolotining asosiy sharti axloqiy poklikdir. Jamiyatning barqaror bo'lishi uchun uning a'zolari axloqan yetuk bo'lishi zarur. Nasafiy insonning uch asosiy fazilatini alohida ta'kidlaydi: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi xulq. Mazkur fazilatlar bilan ziynatlangan inson yolg'on, riyo (ikkiyuzlamachilik) va yomon xulqdan yiroq bo'ladi hamda doimo ezgulik sari intiladi. Kimda ushbu sifatlar shakllansa, u komillik sari yaqinlashadi.

Aziziddin Nasafiyning komil inson haqidagi qarashlarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi; komil inson haqiqiy ma'naviyat bilan oddiy insonlar o'rtasida ma'naviy vositachi hisoblanadi; u yuksak ma'rifatni insonlarga yetkazuvchi ulug' ma'naviy shaxsdir; komil inson jamiyat ichidan yetishib chiqadigan, axloqiy-ma'naviy poklanish orqali kamolotga erishgan zotdir; har bir pok axloqli va haqiqatni sevuvchi inson komillikka intilishi va bu yo'lda yuksalishi mumkin.

Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloqiy kodeksi shakllantirilgan bo'lib, bu sifatlarni egallash har bir insonning orzu-umidi sifatida qaralgan. Bundan shuni anglash mumkinki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq va komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega bo'lib, bir tomondan u ruhiy-ma'naviy qudrat, aql-zakovat va ezgu sifatlarning jamlanmasi sifatida ideal obrazni ifodalasa, ikkinchi tomondan esa ushbu darajalarga erishgan shaxs ham komil inson deb e'tirof etilgan. Demak, komillikka inson bosqichma-bosqich yetishib boradi. Biroq bu darajalar faqat ma'naviy cheklovlar bilan bog'liq emas, balki dunyoviy hayotda ham poklik, ezgulik va axloqiy yetuklikni talab etadi. Aziziddin Nasafiy buni quyidagicha ifodalaydi: "Ey izdosh, haddan tashqari qattiqqo'llik va o'zini qiynashga berilib ketma, balki asosiy vazifalarni ado etish bilan cheklan". So'ng u savol qo'yadi: qolgan umrni nimaga bag'ishlash kerak? Faylasuf-shayx bunga shunday javob beradi: "Shunday yo'l tutginki, qalbing saxovat va donolikka to'lsin, ezgulik sohibi bo'lg'in... qalbing rostgo'ylik va ezgulik bilan bezansin, toki inson degan ulug' nomga munosib bo'lib. Sening mohiyating to'g'rilik va ezgu ishlar yaratish bo'lsin". Xulosa qilib aytganda, Aziziddin Nasafiy ta'rifi ko'ra, komillik - bu inson degan ulug' nomga munosib bo'lishdir. Odamlar orasida komil insonlarning mavjudligi tufayli butun mavjudot inson zotiga ma'naviy jihatdan bo'ysunadi. Komil inson - olamning siri, markazi va mohiyati sifatida talqin etiladi.

Farobiy “Hikmat ma’nolari” (“Fusus al-hikmat”) asarida insonning rivojlanishiga quyidagicha ta’rif berib o’tadi: “Insonda, uning boshlang’ich vujudga kelishida oziqlantiruvchi kuch paydo bo’ladi, uning yordamida inson ovqatlanadi. Bundan so’ng unda teri orqali sezish kuchi vujudga kelib, bu kuch yordamida inson issiq-sovuq kabilarni sezadi. Keyinchalik shunday kuch vujudga keladiki, uning yordamida ta’m-maza seziladi, so’ngra hidni sezishni ta’minlovchi kuch paydo bo’ladi, undan keyin esa shunday kuch vujudga keladiki, u insonni sezilayotgan narsaga yo jalb etadi yoki undan uzoqlashtiradi va shu tufayli insonda seziluvchi narsalarga moyillik yoki nafrat, jirkanish tug’iladi. Bundan keyin shunday kuch paydo bo’ladiki, uning yordamida inson oldin sezilgan va hozir o’z faoliyatidan tashqarida bo’lgan narsalarning tasavvurlarini saqlab qoladi. Bu xayol kuchi bo’lib, hissiy qabul etilgan tasavvurlarni turli tartibda uyg’unlashtirish (qo’shish, birlashtirish, ajratish) vazifasini bajaradi. Bu uyg’unlashtirishning bir qismi haqiqiy, bir qismi yolg’on bo’ladi. So’ngra insonda aqliy kuch vujudga kelib, uning yordamida inson ongli va aniq tushunchalar orqali fikr yuritadi, go’zal narsani xunuk narsadan farq qiladi, san’at va fan to’g’risida bilimga ega bo’ladi, aqliy imkoniyatlari doirasida istagan narsasi bilan shug’ullanadi”. Iqtibosdagi fikrga zamonaviy psixologiyadagi bilish jarayonlar ketma-ketligi asosida yondashadigan bo’lsak, biologik mavjudot sifatida bolada dastlab yuzaga keladigan ehtiyoj, ozuqaga nisbatan sezgi haqida so’z borayotganini tushunish qiyin emas. Undan keyin bolani tashqi olam bilan bog’lovchi teri sezgilarining ishlab ketishi va uning ta’siriga nisbatan javob reaksiyalarini kuzatish mumkin. Farobiy tomonidan bunga urg’u berilishi alohida diqqatga sazovordir. Mutafakkir “keyingi ta’m-maza seziladi, so’ngra hidni sezishni ta’minlovchi kuch paydo bo’ladi” deb sezgi reseptorlarining ishlashiga e’tibor qaratishi hozirgi kundagi rivojlanish psixologiyasi sohasidagi mutaxassislar tomonidan o’z isbotini topayotganligiga shubha yo’q. Farobiy ilgari surgan fikrga kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan yondashilsa, sezgilar asosida idrok, undan keyin xotira, tafakkur va xayol (aqliy kuch) yuzaga kelishini ta’kidlash mumkin.

Ar-Roziy (G’arbda Rhazes nomi bilan mashhur Muhammad Zakariyo Roziy, milodiy 864-930) ko’plab fan sohalarining rivojiga katta hissa qo’shgan buyuk mutafakkirlardan biridir. U tibbiyot bilan birga inson ruhiyati va ongiga oid muhim kuzatishlar ham olib borgan.



U o'zining "Tibb al-Funun" asarida insonning hissiy holatlarini tahlil qilib, ularni o'rganish, tashxislash va davolash bo'yicha fikrlar bildirgan. Shuningdek, xulq-atvor tahlili asosida bemorlarga psixologik va tibbiy yordam berish usullarini ishlab chiqqan. Bu esa uning psixologiya va tibbiy etika tarixiga qo'shgan muhim hissasini ko'rsatadi. Imom G'azzoliy inson ruhiyatiga oid ko'plab masalalarni o'rganib, qo'rquv kabi holatlar bolalikdagi salbiy tajribalar orqali shakllanishi mumkinligini ta'kidlaydi. U mutafakkir sifatida ichki mushohada va o'z-o'zini tahlil qilishni ruhiy muammolarni anglashning asosiy yo'li deb bilgan. G'azzoliy ehtiyojlar g'oyasini ham ilgari surib, inson xulq-atvori ochlik, g'azab, jinsiy istak va tashnalik kabi ichki ehtiyojlar bilan bog'liqligini izohlaydi. Bu qarashlar keyinchalik Abraham Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan qiyoslanishi mumkin bo'lgan dastlabki g'oyalardan biridir. Ibn Xaldun (1332-1406) esa inson shaxsiyatining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan. Unga ko'ra, insonning xulq-atvori va tafakkuri yashayotgan muhiti orqali shakllanadi. Bu qarashlar zamonaviy madaniy nisbiylik va "tabiat va tarbiya" munozarasiga yaqin ilmiy yondashuv sifatida baholanadi. Ibn Xaldun Aristotel va Ibn Sino an'alarini davom ettirib, inson xulq-atvori tajriba va ta'lim orqali shakllanishini ilmiy asosda izohlagan. Najmiddin Muhammad ko'plab ruhiy kasalliklar, jumladan, depressiya, vahima, ta'qiblar majmuasi, jinsiy disfunktsiya va obsesif nevroz (takrorlanuvchi bezovta qiluvchi fikrlar), shuningdek, turli ruhiy kasalliklar haqida ko'p yozgan. Uning kuzatuv yondashuvi, shubhasiz, psixologiya sohasidagi boshqa ko'plab olimlarga ta'sir ko'rsatdi. Sharq mutafakkirlari tomonidan shaxsning rivojlanishiga kognitiv yondashuv

ta'limotlari diqqatga sazovor bo'lib, ular orasida Farobiy ilgari surgan ta'limot va g'oyalari alohida diqqatga sazovordir.

"Fozil shahar aholilarining qarashlari haqida kitob"da mutafakkir dunyoni bilish va o'zligini anglash jarayonida ruhiy quvvatlar va bilish-psixik jarayonlarning o'ziga xosligini izohlash bilan bir qatorda ularning mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashadi. Birinchi, ozuqlanuvchi quvvat. So'ngra ichki va tashqi ruhiy quvvatlar vujudga keladi. Tashqi ruhiy quvvatlar - tashqi buyumlar sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etganda vujudga keladigan quvvatlardir. Tashqi quvvatlar beshta: teri-badan sezgisi (teginish), ta'm-maza bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularning hammasi birgalikda sezish quvvati deyiladi. Ichki ruhiy quvvatlar ham bir necha turga bo'linib, muayyan ruhiy jarayonlarga mos keladi.

Ular quyidagilardan iborat: saqlab qolish va xayol quvvati (xotira, tasavvur va xayol); his-tuyg'u, emotsiya quvvati; nutq quvvati (uning tarkibiga fikrlash quvvati ham kiradi). Farobiy ta'limotiga ko'ra, yuqoridagi quvvatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi insonning keyingi faoliyatlarida aks etib, hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Faoliyat orqaligina u jamiyata'zosi bo'ladi va boshqalar tomonidan tan olinadi, bu esa egallagan kasbi va hunari orqali namoyon bo'ladi.

Mutafakkirning yana bir diqqatga sazovor g'oyasi shundan iboratki, inson organizmining asosiy markazi yurak va miyadir. Birinchi markaz - yurak tana va uning a'zolarini zarur modda - qon bilan ta'minlaydi. Ikkinchi markaz - miyaning asosiy vazifasi esa ruhiy quvvatlarning barchasi va inson ong faoliyati ustidan rahbarlik qilishdan iborat. Organizmdagi ana shu yagona markaz - miyadan boshqarilish barcha ruhiy quvvatlarning o'zaro aloqasini, xususan hissiy bilishdagi aks ettirish bilan aqliy bilishdagi aks ettirish o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlaydi. Odamning ruhiy quvvatlari inson tanasining tabiiy xususiyati sifatida vujudga keladi. Yuqoridagi fikrdan ham ko'rish mumkinki, Farobiy insondagi boshqaruvni ikki asosiy turkumga, ya'ni tana ichki boshqaruvi va ruhiy tashqi boshqaruvga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur boshqaruvning asosini o'z navbatida ozuqlanuvchi quvvat, ichki va tashqi ruhiy quvvatlar tashkil etishini ta'kidlaydi. Boshqaruv jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshishiga alohida urg'u berib o'tadi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun: ozuqlanish quvvati ozuqaga ishlov berib, yurakka uzatadi, o'z navbatida yurak ozuqani qon yordamida tananing barcha qismlariga yetkazadi, shuningdek miya ham ozuqadan quvvat olgach, bilvosita va bevosita o'z ruhiyatini namoyon etadi.

Farobiy o'zining "Fusus al-hikmat" (Hikmat ma'nolari) asarida: "Odam aql va sezgi vositasida bilimga ega bo'ladi. Hissiy bilim timsollari sezgilar yordamida, fikr timsoli esa hissiy timsollar yordamida bilib olinadi", deb ta'kidlaydi. Mutafakkirning mazkur fikridan ko'rinib turibdiki, inson aqli o'z-o'zidan yuzaga kelib qoladigan jarayon emas, aksincha rivojlanish va o'rganish asosida yuzaga keladi. Bundan tashqari, u aqlni ikki asosda tahlil qiladi: a) har bir insonning tabiiy xislati sifatida mavjud bo'ladigan aqliy quvvat nuqtayi nazaridan; b) umumiy insoniyatgaxos bo'lgan aqliy bilishning umumiy taraqqiyoti, rivoji nuqtayi nazaridan. Aql "insonning tabiiy xislati sifatida" va "aqliy bilishning umumiy taraqqiyoti" bosqichlarini bosib o'tgach, "faol aql" darajasiga ega bo'lishiga alohida urg'u beradi va bu faol aql orqali inson farzandi dunyoning yangi qirralarini anglash (ochish) imkoniga ega bo'ladi, degan nazariyani ilgari suradi. Mutafakkir ta'biri bilan ifodalaganda: "Dunyoviy faol aql olam yaralishining bosqichlaridan biri sifatida inson bilan boshlang'ich sababni bog'laydi. Boshlang'ich sabab faol aql bilan bevosita bog'liq va unga ta'sir ko'rsatib turadi. Faol aql esa ruh, jon bilan bog'lanadi,

jon inson tanida mavjuddir, shu tartibda ilohiy sifati moddiy dunyoga, insonga o'tadi, natijada insonning mohiyati, bilimi, uning aqli mangulik sifati bilan bog'liq bo'ladi". Mazkur fikrdan ham ko'rish mumkinki, Farobiy faol aql orqali inson o'zligini va boshqalarni anglaydi, deb hisoblaydi. Faol aql o'z navbatida bilish jarayonlarining eng yuksak nuqtasi hisoblanadi.

